

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

UMUMIY TARIX KAFEDRASI

AHMEDOV SHAHZOD

**SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDAGI
IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rildi va himoyaga
ruxsat berildi: "Umumiy tarix"
kafedrasi mudiri
_____ dots. M.M.Hoshimova
"_____" _____ 2014 y.

Ilmiy rahbar:
_____ ass. Sh.Sh.Hamroqulova

SAMARQAND 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. Shanxay hamkorlik tashkilotining shakllanishi va faoliyati.	
1.1 Shanxay hamkorlik tashkilotining shakllanishi.....	10
1.2 Shanxay hamkorlik tashkiloti faoliyati: maqsadi va vazifasi.....	19
1.3 ShHTning xalqaro maydondagi o' rni.....	29
II BOB. SHHTning iqtisodiy aloqalari.	
2.1 SHHTda Rossiyaning Markaziy Osiyo bilan munosabatlari.....	42
2.2 Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy aloqalari.....	50
2.3 ShHT: iqtisodiy muammolar.....	60
XULOSA.....	71
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	78

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi ShHT doirasida iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy o'ziga hosliklariga va ishtrokchi davlatlar rivojlanishi uchun uning ahamiyatiga baho berishga muhtojlik bilan izohlanadi. Hozirgi kunda ShHTning kelajakda qanday rivojlanishi haqida aniq tasavvur yo'q: ishtrokchi-davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama iqtisodiy integratsiya haqiqatdan ham ro'y beradimi yoki Tashkilot ikki tomonlama hamkorlikning xalqaro instituti sifatida qoladimi. Iqtisodiy hamkorlik sohasida, uning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash uchun, shuningdek iqtisodiy va siyosiy sohalarda ishtirokchi-davlatlarning qiziqishlari to'qnashuvi masalalari, amaliy yutuqlarni doimiy tarzda dolzarblashuvini talab qiladi. ShHTning o'rganilishi jahon hududiylikining rivojlanish tendensiyalarini tahlili nuqatai nazaridan, xususan davlatlarning alohida hududiy birlashmalar o'rtasidagi hamkorlik nuqatai nazarida dolzarb hisoblanadi. So'zsiz, ShHTning o'rganilishi Rossiyaning Yevroosiyo hududida u yoki bu hududiy hamkorlik loyihalarini rivojlantirish borasidagi qiziqishlari uchun ham muhim.

O'zbekiston ham mustaqillikka erishgach, suveren davlat sifatida o'z konstitutsiyasini qabul qildi va unga tayanib O'zbekiston xalqaro munosabatlar tizimining to'la huquqli subyektiga aylandi. Buni biz xalqaro munosabatlar tizimida nufuzli tashkilotga aylana olgan ShHTga O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishida kuzatishimiz mumkin. Bu borada Prezident I.A.Karimov quyidagicha munosabat bildiradi: «2001-yilda tuzilgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti tarixan qisqa vaqtda zamonaviy geosiyosatning nufuzli xalqaro tuzilmasiga aylandi, deyish uchun bugun barcha asoslarimiz bor»¹.

Tashkilot tarixiga qisqacha nazar tashlaydigan bo'lsak, ShHT dastlab «Shanxay beshligi» sifatida nom oldi va unga O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi natijasida uning geografiyasi yanada kengaydi.

¹ Каримов И.А. Жаҳон инкирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Том 18. Т., 2010. 234-бет.

Shanxay birlashmasi doirasida davlatlararo hamkorlik haqida soʻz ketar ekan, mazkur birlashma faoliyatining asosiy siyosiy, iqtisodiy va harbiy-texnikaviy jihatdan qudratli, ayni paytda BMT Xavfsizlik kengashining doimiy aʼzolari boʻlgan 2 buyuk davlat – Rossiya va Xitoy tashkil etayotgani va kelgusida ham shunday boʻlib qolishini taʼminlash uchun barcha asos bor.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti mavzusi bugungi kunda nafaqat xalqaro munosabatlar tarixi uchun, balki unga aʼzo davlatlarning tarix fani uchun yangi va dolzarb mavzulardan biri boʻlib qolmoqda. Sababi, bugungi kunda jahonda roʻy berayotgan global darajadagi muammolar – jahon iqtisodiy inqirozi, xalqaro keskinlik, terrorizm, norkobiznes, ayirmachilik, ekologiyaning buzulishi bir tomondan, ikkinchi tomondan iqtisodiy integratsiyalashuv mintaqadagi birgina davlatning oʻzi bilan hal etilmaydi. Buni hal etish uchun xalqaro hamkorlikda ShHT singari tashkilotlarning faoliyatiga ehtiyoj mavjud.

«ShHTning ushbu barcha murakkab vazifalarni amalga oshirishdagi oʻrni haqida soʻz yuritadigan boʻlsak, uni oʻz ishtirokchilarining holati va imkoniyatlariga mos, mumkin qadar ochiq, omilkor va samarali tashkilotga aylantirish nihoyatda muhimdir. ShHT xalqaro siyosiy birlashma sifatida nafaqat mintaqaviy muammo bilan, balki boshqa xalqaro mintaqaviy muammolar bilan ham shugʻullanadi. Dunyodagi doimiy oʻzgarishlar tashkilotni yanada faol ishlashga undaydi. Koʻz oʻngimizda zamonaviy dunyoning geosiyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya qiyofasida fundamental oʻzgarishlar yasaydigan chuqur jarayonlar roʻy bermoqda...

Shu bois ShHT doirasida ham integratsiya, umummintaqaviy bozor yaratishga yagona yondashuvlarni ishlab chiqish borasida birgalikda ishlashimiz juda muhim ahamiyatga ega. Aminmanki, bu masalalarning hal etilishi ShHTga aʼzo barcha davlatlarning asosiy manfaatlariga bir xilda mos keladi.»²

² Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Том 11. Т., 2003. 275-бет.

ShHT xalqaro tashkilot sifatida o'zining asosiy yo'nalishi xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlantirishga qaratilgan deb hisoblaydi. Harbiy bloklar tuzish, boshqa davlatlar xavfsizligiga rahna solish tashkilotning maqsadi emas. Xususan, Islom Karimov ShHTning 2004-yil 17-iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan sammitida quyidagicha fikr bildiradi.

«Biz shunga qat'iy aminmizki, ShHTning binosini ko'tarib turadigan asosiy ustunlar, eng muhim yo'nalishlar – xavfsizlik va iqtisodiyot bo'lishi zarur. Ana shu ikki ustun yoki ta'bir joiz bo'lsa, aravaning ikki g'ildiragiga tayangan holdagina ShHT faoliyatining samaradorligi va uning xalqaro nufuzini, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyodagi vaziyatga mos tarzda harakat qilishini ta'minlash mumkin.»³

Bugungi kunda ShHTga a'zo mamlakatlarda aholi soni 1,5 mlrd. kishidan ortiq bo'lib, geografik jihatdan Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston hisobiga juda ulkan hududni o'z ichiga oladi.

Rasman shakllanishiga o'n yildan ortiq vaqt o'tgan va bugungi kunda rivojlanish yo'liga kirib olgan ShHT shu muddat ichida o'z tamoyillaridan kelib chiqib, mintaqa va xalqaro darajadagi ko'plab ishlarni amalga oshirdi. Birinchi navbatda tashkilotning tarkibiy tuzilmasi takomillashdi. Kechagina ikki davlatning chegaralar masalasidagi nizolarni hal etish maqsadida tamal toshini qo'ygan shartnoma Shanxay Hamkorlik Tashkiloti darajasigacha yetib kelgan yo'lni bosib o'tdi. Qolaversa ShHT asosiy maqsadlaridan biri mintaqada va jahonda barqarorlikni, tinchlikni ta'minlash uchun kurashdan iborat. Faoliyati davomida bu sohada ham ShHT doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi.

Shunday ekan O'zbekiston tarix fani uchun ShHTni o'rganish yangi yo'nalishlardan biri hisoblanadi, undan tashqari tashkilotning tarixi ham yaqin o'tmish sarhadlaridan bo'y cho'zgan. Ammo unga a'zo davlatlarda yashovchi xalqlarning tarixiy aloqalari ming yilliklarga borib taqaladi, xitoy, qozoq, qirg'iz,

³ Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродаимизга боғлиқ. Том 12. Т., 2004. 342-бет.

tojik, o'zbek, rus va qoraqalpoq xalqlari bir-biri bilan qardoshlik aloqalari orqali mustahkam aloqada bo'lib kelgan va bugungi kunda shu jarayon davom etmoqda.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ishning asosiy maqsadi Shanxay Hamkorlik Tashkilotining bugungi kungacha bosib o'tgan yo'lini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mintaqadagi iqtisodiy masalalarni hal etishda ShHTning ahamiyati va rolini ko'rsatib berishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi.

- Xalqaro maydonda SHHT nufuzli va barqaror mintaqaviy tashkilotga aylanganligini tahlil qilish;
- ShHTning faoliyat, maqsadini, vazifalarini, tamoyillarini va tashkiliy tuzilmasini tadqiq qilish;
- ShHT doirasidagi asosiy hamkorlik yo'nalishlarini o'rganish;
- Mintaqadagi iqtisodiy masalalarni hal etishda ShHTning ahamiyati va rolini ko'rsatib berish;
- Xalqaro maydonda ShHTning bugungi kundagi o'rni va roliga baho berish

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. ShHT faoliyati rus, xitoy va boshqa tarixchilar tomonidan ko'p o'rganilgan, ammo mamlakatimiz tarixchilari tomonidan yirik hajmdagi tadqiqot ishlari nisbatan kam olib borilgan. Bir necha nomzodlik ishlari amalga oshirilgan, ularda ham tashkilotning ayrim jihatlari qamrab olingan xolos.⁴ Shu o'rinda yana bir jihatga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. ShHT mavzusi borasida amalga oshirilgan har qanday ilmiy ish bir necha yilda eskirib qolishi mumkin. Sababi, ShHT hali yosh tashkilot va balki shu sababli uning faoliyati juda faol ravishda olib boriladi, kelajakda esa uning safi yangi a'zolar bilan to'ldirilishi mumkin. Bugungi kunda va shu kunga qadar ham amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning asosiy qismi ShHT va unda O'zbekistonning ishtiroki masalasini o'rganishga qaratiladi. Tashkilotning O'zbekistonda amalga oshirgan o'zgarishlardagi o'rni hamda roli masalasiga, undan tashqari tashkilotda

⁴ Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ)нинг аҳамияти//сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2007. 4-бет.

O'zbekistonning mavqeyi, a'zo mamlakatlar ikki yoqlama va ko'p tomonlama olib borilayotgan iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalardagi hamkorlikka O'zbekiston nuqtai-nazaridan e'tibor berilgan. Bu ishlarda asosiy e'tibor ShHTning vujudga kelishi, uning tarixiy ildizlaridan boshlab shakllanish jarayonini qisqacha o'rganib, davlatlar o'rtasidagi siyosiy hamda iqtisodiy aloqalarga ham to'xtalib o'tgani holda tashkilotning unga a'zo bo'lmagan yoki kuzatuvchi sifatida ishtirok etayotgan davlatlar haqida ma'lumot beriladi. Undan tashqari boshqa tashkilotlar bilan munosabati, Yevropaning qudratli mamlakatlari yoki Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya va shu kabi qudratli, yirik davlatlarning munosabati va tashkilot bilan aloqalari masalasiga oid ma'lumotlarga e'tibor qaratiladi.

Hozirgi davrda yuz berayotgan tezkor o'zgarishlar natijasida ma'lumotlarni ko'rib chiqish, ularni qayta ishlash va barchasiga munosabat bildirishning imkoni yo'q. Shunday ekan ShHT mavzusiga oid barcha ma'lumotlarni o'rganish va foydalanish umuman imkoni bo'lmaydigan holatdir.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati hamda Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik va integrratsiya muammolarini o'rganish hamda ularni tahlil qilish bilan A.X.Xodjayev⁵, R.M.Alimov⁶, G.I.Karimova⁷, O.S.Mannonova⁸, U.A.Xasanov⁹, V.V.Parmonov¹⁰, Sharipov M.Sh.¹¹ va Muxamadjanov A.N.¹² R.Alimov kabi o'zbekistonlik yetakchi siyosatshunos olimlar shug'ullanmoqdalar.

⁵ Ходжаев А.Х. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т., «Фан», 2004.

⁶ Алимов Р.М. Центральная Азия: Общность интересов. – Т., «Шарк», 2005. 464 с.

⁷ Каримова Г.И. Политико-экономический реформы в Узбекистане: реалии и перспективы. Т., «Узбекистан», 1995.

⁸ Маннонова О.С. Политологическое изучение проблем регионально развития безопасности и интеграции в Центральной Азии в зарубежной русскоязычной литературе//Диссертация на соиск.науч.степени канд.полит.наук. Ташкент, 2001.

⁹ Хасанов У.А. Региональная безопасность и национальные интересы (Центрально-азиатский регион). М., 2004.

¹⁰ Парманов В.В. Геостратегия США в Центральной Азии: Автореф. дис... канд.полит.наук. Т., 2002.

¹¹ Шарипов М.Ш. Марказий Осиёда хавфсизлик ва барқарорликни мустаҳкамлашда Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ)нинг аҳамияти//сиёсий фанлар номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т., 2007.

¹² Мухамеджанов А.Н. Шанхайская Организация Сотрудничества в системе современных международных отношений в Южной и Центральной Азии// автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Т., 2010.

A.Xodjayev asarlarida Markaziy Osiyo mintaqasidagi Xitoy ta'sirining tarixiy asoslari va hozirgi holati, ularning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotiga bo'lgan ta'siri chuqur tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridagi olimlar ham, jumladan, Qozog'iston va qirg'izistonlik V.Kasimbekov, V.Xlyunin, U.Kasenov, T.Akimov, S.Akimbekov, R.Burnashev, M.Laumulin, K.Siroyejkin¹³lar shu mavzu bilan shug'ullangan. Ayniqsa, qozog'istonlik V.Xlyunin, G.I.Morozov, E.A.Nozdnyakov, K.S.Gadjiyev, A.D.Voskresenskiy, N.A.Lomagin¹⁴ o'z asarlarida ko'proq e'tiborni Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlarini o'rganishga qaratganligi bilan diqqatga sazovor.

Bundan tashqari ishini yoritishda ko'plab internet saytlaridan ham unumli foydalanildi: www.infoshos.ru, www.SCO.ru, www.izvestia.ru, www.centran.ru, www.english.gov.cn, www.impravo.ru, www.europa.eu.int.

Izlanish obyekti - ShHT davlatlari va ularning o'zaro iqtisodiy hamkorliklari. ShHT doirasida davlatlarning hamkorligi, Markaziy Osiyoda YevroOsIH, MDH, IHT harakatlari shart-sharoitida uning institutlari, mexanizmi, dinamikasi va istiqbollari izlanishning predmeti hisoblanadi.

Ilmiy-amaliy ahamiyati. Ishda ShHTning faoliyati tahlil qilingan hamda mazkur tashkilotni xalqaro tashkilot sifatidagi o'rni, imkoniyatlari va uning mavqei, qolaversa bugungi kun mintaqadagi turli muammolarini hal etishning eng samarali usullari ShHT doirasida nechog'lik amalga oshirilayotganligi tahlil qilingan. ShHTning ichida ham va uning boshqa tashkilotlar, davlatlar bilan o'zaro aloqasi holatida ham uning iqtisodiy siyosatini ilmiy asoslash. Bu a'zo davlatlarga milliy siyosatni koordinatsiyalashga va Tashkilot doirasida iqtisodiy hamkorlik rivojlanishining yangi yo'llarini topishga imkoniyat beradi. Shuningdek izlanish natijalari Rossiya tashqi siyosati uchun ham foydali bo'lishi mumkin, ayniqsa

¹³ Хлюнин В. В. Геополитический треугольник: Казахстан-Китай-Россия. Прошлое и настоящее пограничной проблемы. М., 1999.

¹⁴ Воскресенский А.Д. Китай и Россия: теория и история межгосударственных отношений. – М., 2004; Шанхайская организация сотрудничества и российско-китайское взаимодействие в Центральной Азии. - М., 2006.

ShHT a'zolari bilan umumiy iqtisodiy aloqalarni yaratishda va Xitoy bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashda ahamiyati katta.

Ishning tarkibiy qismi.

Mazkur tadqiqot ishi kirish, oltita paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismlaridan tashkil topgan.

Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslashga harakat qilgan. Shu bilan birga, ishning asosiy maqsadi Shanxay Hamkorlik Tashkilotining bugungi kungacha bosib o'tgan yo'lini ilmiy jihatdan tahlil qilish, mintaqadagi iqtisodiy masalalarni hal etishda ShHTning ahamiyati va rolini ko'rsatib berishdan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Shanxay hamkorlik tashkilotining shakllanish jarayoni va uning faoliyati" deb nomlangan bitiruv – malakaviy ishining birinchi bobida Shanxay hamkorlik tashkilotining shakllanish tarixi, Shanxay hamkorlik tashkilotining maqsadi, vazifasi, hamda SHHTdagi muammolar va ularning yechimlari yoritilgan.

Bitiruv – malakaviy ishining ikkinchi bobi "SHHTning iqtisodiy aloqalari" ga bag'ishlangan bo'lib, unda Rossiya va Xitoyning o'zini birinchi qismida, Markaziy Osiyoda davlatlari va ShHT- ikkinchi qismida, ShHTning xalqaro maydondagi o'zini – uchinchi qismda o'rganilgan.

I BOB. Shanxay hamkorlik tashkilotining shakllanishi va faoliyati.

1.1. Shanxay Hamkorlik Tashkilotining shakllanish tarixi

Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlatlar o'rtasidagi aloqalarning tarixi uzoq ildizlarga borib taqaladi. Agarda o'tmishda Xitoy va O'rta Osiyo aloqalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bir necha ming yillik aloqalar har qanday sharoitda ham ko'plab to'siqlarga qaramasdan davr sinovlariga bardosh berib, rivojlanishda davom etavergan. Buyuk ipak yo'li doirasida savdo va madaniy aloqalar natijasida xalqlarimiz bir-biriga har jihatdan yaqinlashib borgan. Fikrlarimizning isboti uchun misollar hatto keragidan ham ortiqroq deyishimiz mumkin.

ShHT ham boshqa tashkilotlar kabi o'zining tarixi va shakllanish jarayonlariga ega. «Shanxay beshligi» sifatida dastlab o'z faoliyatini boshlagan tashkilot a'ziligiga O'zbekistonning qo'shilishi bilan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti nomini oldi. Aslida ShHTning tarixiy ildizlari XX asrning 60-yillariga borib taqaladi. Chunki, sobiq ittifoq XXR o'rtasidagi hududiy muammolarni hal etish o'sha davrdayoq pishib yetilgandiki, unga barham berish esa ma'lum bir muddatni taqozo etardi.¹⁵ «Shanxay beshligi» Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Xitoy Xalq Respublikalari o'rtasidagi chegara hududlarida qurolli kuchlar sonini qisqartirish va bir-biriga ishonish natijasida kelishuvga erishish jarayonida shakllandi.

Umuman olganda, «Shanxay beshligi» va Shanxay Hamkorlik Tashkilotining shakllanish tarixini shartli ravishda bir necha bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich – 1989-yil noyabr oyidan 1991-yil dekabr oyiga qadar sobiq Sovet Ittifoqi parchalanib ketishigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.¹⁶ «Sovuq urush» sharoitida sobiq sovet ittifoqining Xitoy bilan munosabatlari bir xil rivojlanmaydi. Ulardagi siyosiy tizim yagona kommunistik qarashlarga asoslangan

¹⁵ Бекмуротов И. Шанхай Хамкорлик Ташкилоти // Жамият ва бошқарув. №2, 2004. 64-бет.

¹⁶ История развития ШОС//<http://www.SCO.ru>

bo'lsada, ammo munosabatlar doimo iliq va ittifoqchilik ko'rinishida bo'lib kelmadi. Sovet-Xitoy munosabatlari goh iliq, goh siyosiy tarang holatda bo'lib keladi. Qolaversa sovuq urush davridan yoki to XX asrning 90-yillariga qadar Xitoy ikkinchi darajali davlat sifatida baholanib kelindi. Garchi Birlashgan Millatlar Tashkiloti «Xavfsizlik Kengashi» doimiy a'zosi bo'lib, hududiy va aholi soni jihatidan yirik davlatlar sirasiga kirsa-da, bari-bir Xitoy dunyo siyosati va iqtisodida u qadar kuchli ta'sirga ega emasdi. Lekin o'tgan asrning 80-yillarida boshlanib ketgan iqtisodiy islohotlar natijasida Xitoy juda tez taraqqiy eta boshladi. Natijada bir necha yil ichida, ayniqsa, o'tgan asrning 90-yillaridan boshlab Xitoy dunyodagi eng yirik mahsulot ishlab chiqaruvchi davlatlardan biriga aylanib bordi. Bugunga kelib, u dunyoda mahsulot ishlab chiqarishining umumiy ko'rsatgichlari bo'yicha dunyoda AQShdan keyingi o'ringa ko'tarildi. Hatto ba'zi sohalarda birinchilikni egallashga erishdi. Sovuq urush natijasida sobiq SSSR bosimi ostida belgilangan ittifoqning, to'g'rirog'i ittifoqdoshlarning Xitoy bilan chegarasi masalasi, undan tashqari o'rtadagi chegaralarda to'plangan katta harbiy kuchlar jamlanmasi Xitoyning keyingi taraqqiyoti uchun to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan asosiy faktor sifatida qaraldi. Shu maqsadda xitoy hukumati Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari bilan chegara masalasini hal qilishga kirishdi va ko'p tomonlama muzokaralar boshlanib ketadi. Undan tashqari Xitoy shu mamlakatlar bilan chegara hududlardagi harbiy kuchlar miqdorini qisqartirish masalasida ham muzokaralar boshlanadi. Shanxay Hamkorlik tashkiloti tarixida mana shu voqealar tashkilot tarixining boshlanishi hisoblanadi.

Aslida sobiq ittifoq hamda Xitoy chegarasida qurolli kuchlarni qisqartirish borasidagi muzokaralar ancha avval boshlangan. Muzokaralarning osonroq yechim topishida ikki davlatning bir siyosiy tizimdaligi yordam berdi. Chegara masalasida o'tgan asrning 60-yillarida boshlangan muzokaralar 1989-yil noyabr oyida Xitoy-Sovet muzokaralari bilan davom etdi, unda asosiy e'tibor chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirish va harbiy sohada bir-birini tushunishga qaratildi. Muzokaralar davom etib, nihoyat, 1990-yil 24-aprelida Xitoy va Sobiq sovet

hukumatlari o'rtasida ikki tomonlama shartnoma imzolandi. Unga binoan Sovet-Xitoy chegaralarida belgilangan miqdorga qadar qurolli kuchlar qisqartirilib, harbiy sohada bir-birini anglashga qaratilgan memorandum imzolanadi. Har ikki tomon Sovet-Xitoy chegaralarida harbiy kuchlarni faqat mudofaa va qo'riqlash maqsadidagina saqlashni, bir-biriga hujum qilish va bosqinchilik operatsiyalaridan voz kechishni, chegara hududlarda qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish bilan birga ikki tomon bir-birini anglash, boshqa sohalardagi aloqalarni yaxshilash, harbiy qismlarni va obyektlarni bosqichma-bosqich ravishda qisqartirib borishga kelishib olishdi.¹⁷ Sobiq ittifoq davrida aynan shu muzokaralar sabab SSSR davlat rahbari M.S.Gorbachyov 1989-yil may oyida Xitoyga rasmiy safar uyushtiradi. Bunga javoban Xitoy rahbari Szyan Szemin 1991-yil may oyida Moskvada bo'ladi.¹⁸

Tarixshunoslikda «Shanxay beshligi» yoki Shanxay Hamkorlik Tashkiloti uchun dastlabki qadamlar aynan chegara masalasidagi muzokaralardan boshlandi deb qaraladi.

Tadqiqotchilar mazkur tashkilotning shakllanishidagi ikkinchi bosqich sifatida 1991-yil dekabrda 1997-yil aprelgacha bo'lgan davrni ko'rsatishadi. Bu davrga kelib, sobiq SSSR davlat sifatida tugab, uning o'rnida qator mustaqil davlatlar vujudga kelishi sababli endi Xitoy hukumati yuqoridagi muzokaralarni «sobiq ittifoqdosh» to'rt davlat - Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari hukumatlari bilan alohida-alohida holda olib borishga to'g'ri keldi.

1997-yil aprel oyidan 2000-yilga qadar bo'lgan vaqt tashkilot shakllanishining uchinchi bosqichi sifatida qaraladi. Aynan mana shu davrda tashkilotning besh a'zosi Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari o'rtasida harbiy va boshqa sohalarga oid doimiy muzokaralar o'tkazila boshlandi. Ayniqsa ular hududiy da'volardan voz kechib, mintaqaviy muammolarni hal etishga harakat qila boshladi. Harbiy sohadagi muzokaralarda bir

¹⁷ <http://www.impravo.ru>

¹⁸ Становление и развитие ШОС. С.5// <http://www.SCO.ru>

tomondan Xitoy Xalq Respublikasi va ikkinchi tomondan Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari birgalikda ishtirok etishdi. Boshqa sohalarda besh davlat teng huquqli a'zo sifatida muzokaralarni ko'p tomonlama tartibda olib borishdi.

Umuman olib qaraganda "Shanhay beshligi"ning shakllanishi va uning Tashkilot maqomiga aylanishi ana shu o'n yillikda amalga oshdi. SSSR parchalangach, mustaqil Rossiya Federatsiyasi va Xitoy o'rtasida oldingi chegara masalasidagi muzokaralar davom etib, 1992-yil mart oyida Sharqiy hududlarda bir-birini anglashga oid kelishuvlar imzolanishi bilan tugadi. Mazkur shartnomalar har ikki tomonda ratifikatsiya qilindi. 1994-yil sentabrda Xitoy rahbari Szyan Szemin rasmiy tashrif bilan Rossiyaga keladi. Mazkur safar chog'ida Rossiya va Xitoy o'rtasida chegara masalasida yana bir shartnoma imzolaniib, shartnomaga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi g'arbiy chegaralar masalasiga oydinlik kiritildi. 1995-yil oktabrda har ikki mamlakat parlamenti tomonidan mazkur shartnoma ratifikatsiya qilinadi. Shu tariqa birinchi bor Xitoy va Rossiya o'rtasidagi 4300 km.lik chegara o'zgarmasligi va qat'iyligi huquqiy jihatdan belgilab olindi.¹⁹

Xitoy va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara masalasidagi kelishuv 1996-yil iyul oyida Xitoy rahbari Szyan Szeminning Bishkekka amalga oshirgan safari paytida imzolandi. Ammo bu shartnoma Xitoy, Qirg'iziston chegaralari muammosini to'la bartaraf etmadi. Keyinroq, chegara masalasidagi yana bir hujjat 1999-yil avgust oyida Xitoy va Qirg'iziston hukumatlari o'rtasida «Shanxay beshligi» tashkilotining davlat rahbarlari o'rtasidagi Bishkek uchrashuvi chog'ida Szyan Szemin va Askar Akayev o'rtasida imzolandi. Ushbu «Qirg'iziston va Xitoy o'rtasidagi davlat chegaralari to'g'risidagi qo'shimcha kelishuv» deb nomlanuvchi shartnoma Xitoy va Qirg'iziston o'rtasidagi 1000 km.dan ortiqroq chegara hududlarini huquqiy jihatdan tartibga soldi.²⁰ Amalda mazkur qo'shimcha shartnoma bilan xitoy-qirg'iz chegarasi masalasiga to'lig'icha yechim topildi.

¹⁹ Становление и развитие ШОС. С.5.// <http://www.SCO.ru>

²⁰ Становление и развитие ШОС. С.5.// <http://www.SCO.ru>

Bugungi kunda Tojikiston va Xitoy o'rtasidagi chegara masalasi hamon o'z yechimini topmagan bo'lsa-da, ammo shu yo'nalishdagi ilk muzokaralar uchun 1999-yil avgustda Xitoy rahbari Szyan Szemin va Tojikiston prezidenti Imomali Raxmonovlar o'rtasida Dalyan shahridagi uchrashuv chog'ida olib borildi. Biroq masalaga amaliy yechim topilmadi.

2000-yil iyul oyida Dushanbe shahrida «Shanxay beshligi»ning bo'lib o'tgan navbatdagi sammitida Xitoy, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida uch tomonlama kelishuv imzolaniib, unda davlatlar o'rtasidagi chegara masalasiga oid munozarali holatlar tahlil qilindi. Aynan mana shu ikki kelishuv Xitoy va Tojikiston o'rtasidagi chegara masalalarini hal etishdagi dastlabki qadam bo'ldi, deyish mumkin.²¹

Qozog'iston va Xitoy o'rtasidagi chegara masalalari bo'yicha muzokaralar olib borish uchun 1994-yil aprel oyida Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi kotibi Li Pen Qozog'istonga rasmiy tashrif bilan keladi. Shu uchrashuv paytida Qozog'iston va Xitoy o'rtasidagi chegaralarga oid kelishuv imzolandi. 1997 yil sentabrda Xitoy vaziri Li Pen yana bir bor Qozog'istonga rasmiy tashrif bilan keldi. Muzokaralar yakunida «Qozog'iston va Xitoy o'rtasidagi davlat chegaralari to'g'risidagi qo'shimcha kelishuv» shartnomasi imzolandi.²² Mazkur shartnoma Xitoy-Qozog'iston chegaralarini huquqiy jihatdan amalda tan olinganligini anglatdi.

Yangi munosabatlar sharoitida chegara masalasi bilan birga Xitoy hukumati sobiq chegara hududlaridagi harbiy qismlar masalasiga ham e'tibor qaratib keldi. Shu maqsadda 1996-yil 26-aprelda Xitoyning Shanxay shahrida birinchi marta sobiq SSSR parchalangach, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston davlat rahbarlarining uchrashuvi bo'lib o'tdi va unda harbiy sohada o'zaro ishonch to'g'risidagi shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, barcha tomon chegara hududlarda qurolli kuchlar miqdorini kamaytirish, bir-biriga qurolli tahdid

²¹ Становление и развитие ШОС. С.5.// <http://www.SCO.ru>

²² Становление и развитие ШОС. С.5.// <http://www.SCO.ru>

solmaslik, boshqa mamlakatlar bilan ham bir-biriga tahdid solmaslik, zarur holatlarda harbiy mashg'ulotlar o'tkazib turish, biror-bir tomonga harbiy xavf yuzaga kelgan holatda shartnomani imzolayotgan mamlakatlar armiyalari bir-biri bilan ma'lumot almashishga va hamkorlik qilishga kelishib olishdi.²³

Ana shu uchrashuvda 1996-yil 26-aprelda Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida "Shanxay beshligi"ni tashkil etish to'g'risidagi bitimni imzolashdan boshlangan, uning maqsadi—tashkilotning a'zo-davlatlari o'rtasidagi chegarada qurolli kuchlarni qisqartirish va harbiy ishonchni o'rnatish bo'yicha choralarni qabul qilish bo'ldi. Mazkur sammitda uchrashgan davlat rahbarlari harbiy sohada bir-biriga ishonch, chegara hududlarida qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish, boshqa bir uchinchi davlat tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf sharoitida bir-biriga qarshi chiqmaslik, dushmanga qarshi kurashga mo'ljallangan harbiy mashg'ulotlar o'tkazib turish, harbiy xizmatchilar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatish, chegarachilarning doimiy maslahat va tajriba almashuvini yo'lga qo'yish kabi masalalar ko'rib chiqildi.²⁴

Forum ishtirokchilarining ikkinchi uchrashuvi 1997-yil 24-25 aprel kunlarida bo'lib o'tdi. Unda bir tomondan Xitoy Xalq Respublikasi va ikkinchi tomondan o'zaro hamkor davlatlar sifatida Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari ishtirok etishadi. Uchrashuv chog'ida XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari o'rtasidagi davlat chegaralarida qurolli kuchlarni qisqartirish borasidagi qo'shma shartnoma imzolandi. Shartnomaga binoan har bir davlat chegarasidan 100 km. ichkarigacha bo'lgan hududlar geografik makon sifatida tan olinadi. Harbiy qismlar faqatgina ma'lum bir belgilangan hududlardagina joylashtirilib, ularning soni ham maksimal darajada kamaytirishga kelishib olindi.

Davlatlar o'z chegaralarida faqatgina chegara qo'shinlarini saqlash bilan birga boshqa harbiy kuchlar turlarini, xususan, harbiy havo kuchlari, quruqlik

²³ Становление и развитие ШОС. С.5.// <http://www.SCO.ru>

²⁴ Соглашение между РФ Республикой Казахстан, Киргизской республикой, республикой Таджикистан и КНР о взаимной сокращении вооруженных сил в районе границы. С.4.//<http://www.impravo.ru>.

qo'shinlari va boshqa og'ir texnikalarni faqatgina chegaradan 100 km. ichkarida saqlashi mumkin bo'lishi belgilandi.

Besh davlat o'rtasidagi 7000 km.lik umumiy chegara (shartnomada ko'rsatib o'tilgan) hududlarida joylashtirilgan harbiy xizmatchilar, quruqlikdagi qo'shinlar va boshqa harbiy qismlarning umumiy soni 130400 kishidan oshmasligi kerak edi.²⁵

Mazkur uchrashuvda ham asosiy e'tibor chegara hududlaridagi qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish masalasiga qaratiladi. Faqatgina bu safar chegara hududlaridagi harbiy xizmatchilarning soni, qurolli kuchlarning miqdori ham aniq ko'rib chiqiladi. Ammo mazkur sammitda imzolangan shartnomalar doimiy ahamiyatga ega bo'lmay, 2010-yil 31-dekabrga qadar muddatgacha deb belgilandi.

1997-yil aprel oyidagi uchrashuvlardan keyin «Shanxay beshligi» doirasidagi hamkorlik faqatgina chegara masalasi yoki chegara hududlardagi qurolli kuchlar miqdorini qisqartirish borasida bo'lib qolmasdan, boshqa sohalarda ham amalga oshirila boshladi. Ayniqsa, aloqalar keng miqyosli ravishda siyosat, diplomatiya, harbiy masalalar, xavfsizlik masalalari va iqtisodiy sohalardagi muzokaralar e'tiborga olinmoqda.

Shu tariqa rasman «Shanxay beshligi»ning tarixi chegaradosh besh davlatning chegara hududlaridagi xavfsizlikni ta'minlash borasidagi kelishuvlardan boshlandi.

1998-yil 3-4 iyul kunlari Alma-ota shahrida «Shanxay beshligi» forumi doirasidagi uchinchi uchrashuv bo'lib o'tadi. Beshala ishtirokchi davlat rahbarlari mazkur uchrashuv doirasida «Alma-ota bayonoti» qabul qilinadi. Unga ko'ra, barcha tomonlar 1997-yil 24 aprelda imzolangan chegara hududlarida qurolli kuchlarni qisqartirishga doir shartnoma shartlarini bajarish majburiyatini o'z zimmalariga olishdi. Shu majburiyatlarni bajarish bilan birga barcha respublikalar ikki tomonlama va ko'p tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga, mintaqaviy muammolarni hal etishda doimiy

²⁵ <http://www.impravo.ru>

ravishda muzokaralar va kelishuvlar asosida davlatlararo qiziqishlar hisobga olingan holda amalga oshirishi zarur edi. Tomonlar har qanday separatizm, etnik ziddiyatlar, diniy ekstremizm, diniy fundamentalizm terrorchilikka qarshi chiqishga, ularni oldini olish, bartaraf etishga kelishib olishdi.²⁶

Forum ishtirokchilari asosiy e'tiborni global darajaga ko'tarib ulgurilgan xalqaro terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, jinoyatchilikning tashkiliy, uyushgan shakllariga qarshi kurashishga qaratishdi.

«Shanxay beshligi» forumiga a'zo davlatlar rahbarlarining doimiy uchrashuvining yo'lga qo'yilishi natijasida hamkorlik doirasi ham doimiy ravishda kengayib bora boshladi.

2000-yil 9-iyulda Dushanbe shahrida «Shanxay beshligi»ning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Sammitda ishtirokchi davlatlar tomonidan «Dushanbe Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Deklaratsiyaga muvofiq, tomonlar kelajakda bir-biriga ishonch, do'stona hamkorlikni besh davlat o'rtasida saqlab qolish, munosabatlarni yanada rivojlantirish, davlatlar o'rtasidagi harbiy aloqalarni yanada chuqurlashtirish maqsadida mudofaa vazirlari doirasidagi doimiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, bir-biri bilan maslahatlashish, ma'lumot almashishga kelishib olishdi. Shu tariqa «Shanxay beshligi» davlatlarining mudofaa strukturasi ishlab chiqildi.

Sobiq SSSRning parchalanishi natijasida shu tashkilotga a'zo bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalaridagi ma'lum iqtisodiy hamda siyosiy ziddiyatlarni bartaraf etish asosiy muammo bo'lib qola boshlaydi. Iqtisodiy muammolarning ko'payib borishi, ularning bartaraf etilishida Xitoy tomonidan yordam berilishi, qo'llab-quvvatlanishi hozirgi dunyodagi zamonaviy ilm-fan, texnika yangiliklari asosida milliy ishlab chiqarishlarni oyoqqa qo'yishga kelishib olindi.

²⁶ Совместное Заявление участников Алма-атинской встречи – Республики Казахстан, КНР, Кыргызской Республики, РФ и Республики Таджикистан// <http://www.impravo.ru>

2000-yil iyulida Tojikiston Respublikasi poytaxti Dushanbe shahrida “Shanxay beshligi” tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlarining beshinchi uchrashuvi tashkilot tarixida muhim o’rin tutadi. Sammitning bosh mavzusi diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashda yagona dastur ishlab chiqish birgalikda harakat qilish haqida bo’ldi. Birinchi marta maskur sammitda O‘zbekiston Respublikasi rasman kuzatuvchi sifatda ishtirok etdi 2001-yil iyunda Rossiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston boshliqlarining Shanxaydagi uchrashuvida sodir bo’ldi. O‘zbekiston tashkilotga yangi a’zo sifatida kirdi.

2001-yil tashkilotning rivojlanishidagi ikkinchi bosqichning boshlanishi bo’ldi. Bir qator ekspertlarning fikricha, O‘zbekistonning ShHTdagi ishtiroki bu tashkilotning faoliyatini kelgusida faollashtirishda juda katta rol o‘ynadi. 2001-yil 15-iyunda sammitda ShHTni tuzish haqidagi Deklaratsiya qabul qilindi. Uchrashuv davomida qabul qilingan ShHTni tuzish haqidagi Deklaratsiya, shuningdek, terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi Konvensiya BMTning rasmiy hujjatlari sifatida tarqatilgan edi. Konvensiyaga muvofiq ShHT a’zolari qonunga zid bo‘lgan qilmishlarni oldini olish, bartaraf etish, aniqlash va ko‘rsatish ishida o‘zaro hamkorlik qilishlari kerak edi²⁷.

²⁷ Центральная Азия и Кавказ. 2008. №6 (60), С.43-44

1.2 Shanxay Hamkorlik Tashkiloti faoliyati: maqsadi va vazifasi

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) - 2001-yilda tashkil etilgan hududiy xalqaro tashkilot. Bu tashkilotga Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston hamda O'zbekiston davlatlari a'zo hisoblanadi. Bu tashkilotda O'zbekistondan tashqari Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari "Shanxay beshligi" guruhini tashkil etishadi. Bu guruh 1996-1997-yillardagi hamkorlik natijasida tuzilgan. Bu guruh sanab o'tilgan davlatlar o'rtasida harbiy birdamlik vachegara hududlarida qurolli bazalar qurish to'g'risida shartnomalarni tasdiqlashga kelishib olishgan.

SHHT davlatlarining umumiy maydoni 30 mln kv km ni tashkil etadi va bundan 60 % hudud Yevroosiyo qit'asiga to'g'ri keladi. SHHT da yashovchi aholi 1 mlrd 455 mln kishini tashkil etadi va bu ko'rsatgich yer yuzining to'rtidan bir qismini tashkil etadi (2007-yilgi ma'lumot). Tashkilotdagi Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiyoti dunyo bo'yicha AQSH dan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. SHHT NATO tashkiloti kabi harbiy blok hisoblanmaydi. SHHT asosiy vazifasi tashkilotga a'zo davlatlar hududida tinchlikni ta'minlash va ushbu hududlarda terrorizm, separatizm, giyohvandlik hamda ekstremizmga qarshi kurashishdan hamda iqtisodiy aloqlarni yo'lga qo'yish, hamkorlikni rivojlantirish, fan-texnika va madaniy sohalarni rivojlantirishdan iborat. Tashkilotning rahbari : Dmitriy Mezansev (2012-yilning 7-iyunida bosh kotibi, 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab rahbar bo'lib ishlab kelmoqda). Tashkilotning rasmiy tillari: rus, xitoy

ShHT ham boshqa xalqaro tashkilotlar kabi o'zining **maqsad va vazifalariga** ega, shu bilan birga a'zolari sonini oshirib borish huquqiga ega, faqatgina boshqa mamlakatlar tashkilot maqsadidan kelib chiqib xohish bildirishi lozim

Tashkilotga a'zo mamlakatlar Shanxay hamkorlik tashkilotini NATO kabi harbiy blokka aylantirmagan holda avvalo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga qaratib, xalqaro terrorizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, separatizm kabi davlatlar va xalqlar tinchligiga rahna solib turgan salbiy holatlarga qarshi

birgalikda kurash olib borish va bu yo'lda barcha kuch hamda imkoniyatlarni birlashtirishga kelishib olishdi.

Tashkilotga a'zo mamlakatlar tashkilot doirasida davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini kuchaytirish, ko'p tarmoqli munosabatlarni, hamkorlikni rivojlantirish, hududda tinchlik va yangi demokratik tartiblarni o'rnatishga, birgalikda terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy savdosi va transmilliy jinoyatchilikning boshqa ko'rinishlarga qarshi birgalikda kurash, hududdagi davlatlar o'rtasidagi siyosiy va mudofaaga asoslangan hamkorlikni kuchaytirish bilan birga huquqiy himoya, tabiatni muhofaza qilish, madaniy, fan-texnika, ta'lim-tarbiya, energetika, transport, kredit-moliya va boshqa sohalardagi aloqalarni yanada rivojlantirish dunyo iqtisodiga yanada integratsiyalashish, inson huquqlari va erkinliklari borasida, milliy qonunchilik sohasida hamkorlik qilish, davlatlararo va xalqaro miqyosdagi aloqalarni yanada rivojlantirish, xalqaro ziddiyat va muammolarni munozaralar yoki tinch yo'l bilan bartaraf etish, yangi XXI asrdagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan va mavjud muammolarni birgalikda hal etish ham tashkilot a'zolari oldida turgan ustuvor yo'nalishlar sifatida qaraldi.²⁸

SHHTning maqsadi.

2002-yilda bo'lib o'tgan SHHT konferensiyasida tashkilotning asosiy maqsadlari ko'rib chiqilgan:

- ✓ Qatnashchi mamlakatlar o'rtasida o'zaro do'stlikni saqlash;
- ✓ Hududlarda har tomonlama havfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy-ijtimoiy
- ✓ markazlarni ko'paytirish;
- ✓ Terrozim, separatizm, ekstremizm va uning barcha yo'nalishlariga qarshi, narkotik moddalar, qurol savdosi hamda transmilliy jinoyatlarga va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish;

²⁸ Хартия ШОС. С.1.// <http://www.SCO.ru>

- ✓ Siyosiy, iqtisodiy, savdo, qonuniylikni yo'lga qo'yish, tabiatni asrash, madaniy, oliy ta'limni rivojlantirish, energetika, transport, bank-kredit tizimini rivojlantirish va boshqa sohalarda hamkorlik qilish;
- ✓ Hududlarda iqtidoiy, madaniy va ijtimoiy hamkorlikni rivojlanishining ta'minlanishi
- ✓ Dunyo iqtisodiyotida integratsiyalashuv jarayoniga qo'shilish
- ✓ Hududlarda inson huquqining ta'minlanishi va mamlakatlarda insonlarga yaratib berilgan shart-sharoitlarning ta'minlanishi
- ✓ Xalqaro maydonlarda o'zaro yordamlashish
- ✓ XXI asrdagi muammolarni birgalikda hal qilish

Ishtirokchi davlatlarning maqsadlari va ulardagi o'zaro farqlar.

Dunyo siyodiy ekspertlari fikricha eng kuchli siyosiy birlashma SHHT ekan. Bu qatnashchilar orasida Rossiya va Xitoyning ahamiyati keskin farq qiladi. Xitoy tashkilotning eng katta iqtisodiy bozori vazifasini o'tab beradi va terrorizmga qarshi eng ahamiyatli davlat hisoblanadi. Rossiya esa o'z siyosiy rejalaridagi "uch yomonlik":terrorizm,ekstremizm va separatizmga qarshi kurashuvchi kuchli mamlakat hisoblanadi.Shu bilan birgalikda Rossiya Osiyo bozorlarida Xitoyning asosiy raqobatchisi ham hisoblanadi.Xitoy ham o'z hududidagi terrorizmlarni (masalan uyg'urlarga qarshi) bartaraf etish uchun ruslardan yordam olib turishadi.Shuning uchun ham Xitoy xalqaro maydonda o'zining tarixiy chegaralari masalasini qo'yadi.Natijada Tayvanni o'z tasarrufida saqlab qolish uchun AQSH ning qarshiligini ham inobatga olmadi.Xitoy o'z davlati tarkibidagi mayda davlatlarning mustaqillikka erishishiga mutlaqo qarshi bo'lib turibdi.

Moskvadagi konferensiyada esa Rossiya o'zaro iqtisodiy erkinlik g'oyasini ilgari surib chiqdi. Pekindagi yig'ilishda esa SHHT mamlakatlari hududlarida erkin transport yo'llarini tashkil etish ko'rib chiqilgan. Agarda bu reja amalga oshsa xitoy tovarlari zudlik bilan butun Osiyo qit'asiga tarqalib ketadi va Xitoy iqtisodiyoti bundandan yuqoriroq natijani ko'rsatadi.

A'zolikka nomzodlar va kuzatuvchi davlatlar:

2004-yil Toshkentda bo'lib o'tgan konferensiyada Mo'g'uliston Osiyo davlatlari orasidan birinchi bo'lib SHHT ga kuzatuvchi davlat maqomiga ega bo'ldi. Keying yilda Ostonada bo'lib o'tgan Sammitda Hindiston, Eron, Pokiston davlatlari ushbu maqomga ega bo'ldilar. 2012-yil 6-iyunda Pekinda bo'lib o'tgan Sammitda esa Afg'oniston ushbu maqomga ega bo'ldi. 2005-yil 26-oktabr kunda SHHT yig'ilishida RF perizidenti V.Putin Eronning birinchi vitse-prezidenti Parviz Davudi va Mo'g'uliston bosh vaziri Saxiagiyl Elbekdorjem bilan dastlabki uchrashuvni qabul qilgan edi.

Yildan-yilga SHHT ning dunyo miqyosidagi ahamiyati oshib borgani sayin tashkilotga kiruvchi davlatlar soni ham ko'payib bordi. SHHT ga Pokiston va Hindistonning qo'shilishi ushbu mamlakatlarning dunyo maydonlaridagi ahamiyatini oshirib yubordi. Eronning SHHT konferensiyalarida qatnashishi uning

Yevropa, Xitoy, AQSH va Hindiston bilan aloqalarini yaxshiladi. 2006-yil fevralda bo'lib o'tgan navbatdagi yig'ilishda Xitoy amaldorlari va jurnalistlari Pokiston prezidenti bilan muzokaralari natijasida Pokistonning SHHT ga rasman qo'shilganligini e'lon qildilar. 2005-yilda bo'lib o'tgan yig'ilishda Xitoy va O'zbekiston amaldorlari Pokistonning faqatgina kuzatuvchi mamlakat bo'lib qolishi haqida shartnomalar imzolagan edilar. Pokiston O'zbekiston tuzib chiqqan Afg'onistondagi urushlarga barham berish rejasini va terroristik tashkilotlar hisoblangan Al-Qoida va Tolibonlarga qarshi harbiy harakatlar boshlash majburiyatini oldi. SHHT ning iqtisodiy hamkorliklari tufayli Pokistonda tekstil, poyafzal ishlab chiqarish, guruch eksporti, sifatli tibbiyot vositalari, paxta mahsulotlari importi va energetika sohalari (Pokiston elektr ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda eng oxirgi o'rinlarda turadi) kirib keldi.

SHHT ning bir qancha davlatlari Hindistonning tashkilotga qo'shilishidan manfaatdor edilar. Masalan Rossiya SHHT orqali o'z tovarlarini Hindistonga eksport qilish imkoniga ega bo'lishi mumkin. Bunga O'rta Osiyo va Xitoy yordam berayotgan Pokiston davlatlari vosita rolini o'ynar edilar. Shuning uchun ham SHHT ga Hindistonning qo'shilishidan Rossiya manfaatdor davlat hisoblanadi.

Maqsadlar kesishuvi

Rossiyalik iqtisodchi SHHT ning tugatilishi jarayoni bo'lmaydi va u doimiy hamkorlikdagi tashkilot deb hisoblaydi. Uning fikricha bora-bora Rossiya, Xitoy va O'rta Osiyo davlatlari AQSH bilan hamkorlikda dunyo kelajagining yangi bosqichini qurishadi. Uning ba'zi fikrlari hududlardagi muammolarni ham ochib bergan. Rossiya, Xitoy, Pokiston, Eron va Hindiston davlatlari tomonidan tashkil etilgan Harbiy tarix instituti boshlig'i va RFning mudofaa vaziri A.A.Koltyukov SHHT ushbu hududlarda AQSH ning harbiy tajovuzlarini qaytarishga va havfsizlikni ta'minlashga qodir deb ta'kidlaydi.

Tashkilotdagi shartnomalar.

2002-yilda ushbu davlat vakillarining Sankt-Peterburgdagi yig'ilishida keying yillar uchun qaratilgan islohotlar dasturi tuzib chiqildi. Yi'g'ilishda amaliy ishlarning ikki yo'nalishida akt imzolandi - SHHT deklaratsiyasi va SHHT Xartiyasi (ish yuritish nizomi) imzolandi.

2003-yilning 28-29-may kunlarida bo'lib o'tgan Moskva konferensiyasida SHHT ning Pekinda ochiladigan qarorgohi va Hududiy antiterroristik tarkib (HATT) (Bu tarkib Sankt-Peterburgdagi konferensiyada rejalashtirilgan edi) tashkil etildi. Yig'ilishda ishtirokchi davlatlar terrorizm va ekstremizm yo'nalishlari muammolari va Xizmat-Taxrir faoliyatini tugatish haqida muzokaralar olib bordilar. Shunday shartnomalarning 30 ga yaqin turlarida ushbu yo'nalishlar haqida to'xtalib o'tilgan.

ShHT sammitlari

2001-yil 14-15 iyun kunlari Xitoyning Shanxay shahrida «Shanxay beshligi»ning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Ana shu uchrashuvda O'zbekiston shu tashkilotga rasman a'zo bo'ldi, tashkilotning nomi ham o'zgarib, unga «Shanxay Hamkorlik Tashkiloti» deb nom berildi, uning oltinchi a'zosi bo'lgan O'zbekiston tashkilotga a'zo sifatidagina emas, balki ta'asischi sifatida ham tan olinadi. Tashkilotning avvalgi besh a'zo davlatlari tomonidan O'zbekistonning mazkur tashkilotga kirishi bir ovozdan ma'qullandi. Ayniqsa, Xitoy tomoni

O'zbekistonning a'ziligini faol qo'llab-quvvatlaydi. Xitoy tomonining fikricha, O'zbekistonning tashkilotga a'zoligi mintaqaviy jihatdan olib qaraganda tashkilot yaxlitligini ta'minlaydi.²⁹

O'zbekiston uchun tashkilotga a'zolik qator ijobiy xususiyatlarda namoyon bo'lib, ularning barchasi mamlakat taraqqiyoti va xalq manfaati uchun xizmat qilishi nazarda tutilgan. Undan tashqari, Xitoy va Rossiya kabi harbiy va iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlar bilan yagona tashkilotda bo'lishi yurtimiz uchun juda katta ham iqtisodiy va ham siyosiy ahamiyatga ega. Sababi, Rossiya ham Xitoy ham dunyo siyosatida alohida zarur hollarda hal qiluvchi o'rin egallaydi, undan tashqari Xitoy keyingi 20-30 yil davomida juda katta rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Uning tajribasi keyingi yillarda boshqa mamlakatlar uchun ham tajriba vazifasini bajarishi mumkin.

2001-yil 14-15 iyun kunlarida Shanxay shahrida tashkilotning oltinchi (Shanxay beshligining 6-sammiti, Shanxay Hamkorlik Tashkilotining rasman 1-sammiti) sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ham ishtirok etib, unda tashkilotga O'zbekistonning a'zo bo'lib kirishi to'g'risidagi shartnomaga imzo chekdi. Natijada, tashkilot Shanxay Hamkorlik Tashkiloti degan nom oldi. Bu tashkilotning dastlabki va hozirgi kunga qadar yagona kengayishi bo'ldi. Dastlab, ShHTga nisbatan dunyo miqyosidagi qiziqish, unga boshqa davlatlarning munosabati va tashkilot bilan hamkorlik qilish yoki kelajakda unga a'zo bo'lishni xohlovchi davlatlar bo'lishi tabiiy hol, shu sabab, avvalo qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

2004-yil 17-iyunda Toshkent shahrida ShHTning rasman 4-sammitda O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov, Xitoy rahbari Xu Szintao, Rossiya Federasiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Qozog'iston Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Prezidenti Asqar Akayev, Tojikiston Prezidenti Imomali Raxmonovlardan tashqari birinchi marta tashkilot sammitining mehmoni sifatida Afg'oniston muvaqqat ma'muriyati rahbari Hamid Karzay va Battulga Dashjams

²⁹ Халқ сўзи. 2004 йил 16-июнь. №126 (3401). 1-бет

boshchiligida Mo'g'uliston delegatsiyasi ishtirok etdi.³⁰ Toshkent sammitida birinchi bor tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar vakillari ishtirok etishdi va kelajakda tashkilot a'zolari sonining ortib borishi uchun dastlabki yirik qadam qo'yildi. Sababi, Afg'oniston va Mo'g'uliston delegatsiyasi yurtboshimiz tomonidan taklif qilingandi.

2005-yil 5-iyulda Qozog'iston Respublikasining poytaxti Ostona shahrida ShHTning navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Unda odatdagidek a'zo davlatlar bilan birga mazkur sammitda Belorussiya Respublikasi va Shri-Lanka delegatsiyalari ishtirok etishib, ular tashkilotga kuzatuvchi maqomini berilishini so'rab murojaat qilishdi. Undan tashqari mintaqadagi yirik va ta'siri kuchli hisoblangan Hindiston, Pokiston va Eron delegatsiyalari ham aynan shu sammitda kuzatuvchi maqomini oldi.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining keyingi sammitlarida, xususan, 2006-yil 14-15 iyun kunlari Shanxay shahrida, 2007-yil 16-avgustda Bishkek shahrida, 2008-yil 28-avgustda Dushanbe shahrida, 2009-yil 15-16 iyun kunlari Rossiyaning Yekaterinburg shahrida, 2010-yil 10-11 iyunda Toshkentda va 2011-yil 14-15 iyun kunlari Ostona shahrida ShHTga a'zo davlatlar bilan birga kuzatuvchi va mehmon davlatlar ham ishtirok etdi.³¹

2004-yildagi Toshkent va 2005-yildagi Ostona sammitdaridan boshlab, ShHTning oliy darajadagi sammitlarida doimiy ravishda kuzatuvchi maqomidagi davlatlar, hamkor davlatlar, xalqaro tashkilotlarning vakillari ishtirok etib kelmoqda.

Ma'lumot sifatida quyidagi misollarni keltirib o'tishimiz mumkin. 2010-yil 10-11 iyun kunlari ShHTning Toshkent sammitida tashkilotga a'zo davlatlar rahbarlari (faqatgina Qirg'iziston tashqi ishlar vazifasini bajaruvchi Ruslan Kazakbayev) qatnashdi.³²

³⁰ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 1-бет.

³¹ Шанхайска Организация сотрудничества// <http://www.seet SCO.org>.

³² Халқ сўзи. 2010 йил 12-июн. №116 (5031), 2-бет.

Ulardan tashqari kuzatuvchi maqomidagi davlatlar delegatsiyalari rahbarlari ishtirok etishadi. Xususan, Mo'g'uliston prezidenti Saxia Geyn Elbegdorj, Eron Islom Respublikasi tashqi ishlar vaziri Manuchehr Muttaqiy, Pokiston Islom Respublikasi prezidenti Osif Ali Zardoriy, Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Somonaxalli Malayya Krishna, sammit mehmonlari Afg'oniston Islom Respublikasi prezidenti Hamid Karzay, Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuhammedovlardir. Shuningdek, majlisda ShHT Bosh kotibi Muratbek Imonaliyev, ShHT MATT Ijrochi direktori Jenisbek Jumanbekov, BMT Bosh kotibining o'rinbosari Yan Kubin, MDH Ijroiya qo'mitasi raisi Sergey Lebedev, ODKB Bosh kotibi Nikolay Bordyuja, YevrAzEs Bosh kotibining o'rinbosari Murat Musatayev, ASEAN Bosh kotibining o'rinbosari Sayakan Sisovonglar ham ishtirok etishdi.³³

Shunday ekan mazkur sammitda ShHTning ta'sir geografiyasi doimiy ravishda kengayib borayotganligini ko'rsatib berdi.

Ostona shahrida ShHTning navbatdagi sammiti 2011-yil 14-15 iyun kunlari bo'lib, unda a'zo davlatlardan tashqari majlis ishida kuzatuvchi maqomidagi davlatlar delegatsiyalari rahbarlari - Eron Islom Respublikasi prezidenti Mahmud Axmadinejad, Pokiston Islom Respublikasi prezidenti Osif Ali Zardoriy, Hindiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Somonaxalli Malayya Krishna, Mo'g'uliston prezidenti ma'muriyati rahbari Battulga Dashjamslar ham qatnashdi. Qolaversa sammitga va tashkilotga raislik qiluvchi mamlakat mehmoni sifatida taklif etilgan Afg'oniston Respublikasi prezidenti Hamid Karzay, shuningdek, BMT, MDH, ODKB, ASEAN, YevrAzEs va boshqalarning vakillari ham ishtirok etishdi.³⁴

2013-yilning 4-5- dekabr kunlarida ushbu tashkilot davlatlarining bosh vazirlari ishtirokida Bishkekda yig'ilish bo'lib o'tdi. Uchrashuvda 30 ga yaqin dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar orasida yo'llar qurilishidan tortib, tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida shartnomalar imzolandi. Shartnomalar

³³ Халқ сўзи. 2010 йил 12-июн. №116 (5031), 2-бет.

³⁴ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 1-бет.

orasida janubiy Chelyabinskda metallurgiya zavodlarini qurish belgilandi. Rossiya va Qirg'iziston elektr lampalar ishlab chiqarish, Tojikiston va Qozog'iston mayda va o'rtacha kattalikdagi GES lar qurishga kelishib oldilar. Ushbu shartnomalarga kuzatuvchi (Afg'oniston, Hindiston, eron, Mo'g'uliston) va hamkor davlatlar (Belorussiya, Shri-Lanka, turkiya) ham qo'shildilar.

SHHT davlatlari a'zolarining uchrashuvlari:

O'takzilgan vaqti	hudud
2001-yil 14-15- iyun	Shanxay
2002-yil 7-iyun	Sankt-Peterburg
2003-yil 28-29-may	Moskva
2004-yil 17-iyun	Toshkent
2005-yil 5-iyul	Ostona
2006-yil 14-15-iyun	Shanxay
2007-yil 16-avgust	Bishkek
2008-yil 28-avgust	Deshanbe
2009-yil 15-16-iyun	Yekaterinburg
2010-yil 10-11-iyun	Toshkent
2011 -yil 14-15-iyun	Ostona
2012-yil 6-7-iyun	Pekin
2013-yil 13-14-sentabr	Bishkek
2014-yil rejalashtirilgan	Dushanbe

SHHT ning 2004-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan konferensiyasida "Toshkent deklaratsiyasi" imzolandi. Ushbuyig'ilishda vakillar har tomonlama manfaatli shartnomalar va SHHT ga yangi a'zo ya'ni Mo'g'ulistonni qo'shish masalasini ko'rib chiqdilar.

2005-yilda bo'lib o'tgan SHHT ning navbatdagi konferensiyasida iqtisodiy shartnomalarga o'zgartirishlar kiritildi va keying faoliyatni kengaytirish haqidagi yangi shartnomalar imzolandi. 2007-yil avgustda Bishkekda bo'lib o'tgan konferensiyada SHHT qatnashchilari orasidagi hududiy qo'shniçilik va do'stona munosabatlarni rivojlantirish hamda hamkorlikni taminlash uchun "Bishkek deklaratsiyasi" imzolandi. Konferensiyada yana ikki kuzatuvchi davlat vakillari hisoblangan Mo'g'uliston prezidenti Nambarin Enxbayar va Eron Islom Respublikasi prezidenti Maxmud Ahmadinejadlar qabul qilindi. Bundan tashqari yana ikki kuzatuvchi vakillar hisoblangan Pokiston tashqi ishlar vaziri Xurshid Kasuri va Hindistonning neft va tabiiy gaz vaziri Murli Deodar qabul qilindi. 2009-yilda Yekaterinburgda bo'lib o'tgan konferensiyada SHHT vakillari tashkilotga Shri-Lanka va Belorussiyani qabul qilish masalasini ko'rib chiqdilar. 2012-yilda bo'lib o'tgan konferensiyada SHHT vakillari Afg'oniston masalasi hamda SHHT ga Turkiyani qabul qilish masalasini ko'rib chiqdilar.

1.3. ShHTning xalqaro maydondagi o'rni

Shanxay hamkorlik tashkilotining (ShHT) tashkil etilishi Rossiya va Xitoyning Markaziy Osiyo ustidan nazoratda Yevropaga (AQSh va Yevropa ittifoqi) yon bermasligi to'g'risida darak beradi. Biroq, bunga erishish uchun Rossiya va Xitoy Osiyoda o'zlari doimiy raqib bo'lishlari kerak edi. Hozirgi kunda umumiy natija bergan narsa bu Rossiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi ta'sir doirasining kuchsizlantirilishi va Xitoyning yanada jalb qilinishidan iborat. Markaziy Osiyo mintaqasidagi bironta ham xalqaro masalani Rossiyasiz yoki uning istagiga qaramasdan hal qilib bo'lmaydi³⁵. Mintaqa uning milliy manfaati doirasiga kirib bormoqda va Rossiya hali ham bu yerda ma'lum ta'sir doirasini saqlab qolmoqda.

Mintaqadagi NATO va SHHT tashkilotlarining faoliyati

Mintaqada NATO va ShHT kabi tashkilotlarining mavjudligi Markaziy Osiyoning xavfsizligiga, ko'proq tashqi va ichki xavfning barqarorlogiga katta ta'sir ko'rsatayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Bunday tashkilotlarning bir-birini nazarga olmaslik - Markaziy Osiyo mintaqasida ochiqcha raqobatlashuv na tashqi "o'yinchilarga", na Markaziy Osiyo davlatlarining strategik manfaatlariga javob bermaydi va mintaqada destruktivniy qarashlarning rivojlanishiga olib keladi.

Hozirgi bosqichda Markaziy Osiyoda NATOning ishtiroki aktiv qarshilikka uchramay turibdi, ya'ni qaysidir ma'noda u Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlariga iqtisodiy aspektlardagi kabidek, harbiy-siyosiy sohada ham strategik jihatdan foydalidir³⁶.

ShHT ham maqsadga intilgan holda rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda xavfsizlikni ta'minlashda qandaydir strukturaning rolini tushirishning iloji yo'q. O'zaro qaramlikning o'sishi sharoitida barcha xalqaro strukturalar manfaatlarini kechib o'tishga jalb qilingan. Barcha xalqaro xavfsizlik strukturasi

³⁵ «Центральная Азия. Геополитика и экономика региона». Москва-2010. Стр186

³⁶ «Центральная Азия. Геополитика и экономика региона». Москва-2010. Стр196

imkoniyatlarini inobatga olgan holda, Markaziy Osiyoda mintaqa xavfsizligi sistemasi uchta bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich – postsovet va Markaziy Osiyo makonida harbiy-siyosiy strukturasi aloqalariga ko'ra Kollektiv xavfsizligi to'g'risidagi shartnoma tashkiloti.

Ikkinchi bosqich – Xitoyni jalb qilish vositasi bilan va boshqa tashkilotlarning vazifalari spektoriga kirmaydigan xavflarga qarama-qarshi ravishda mintaqada xavfsizlikni ushlab turishda hamkorlikni kuchaytirish uchun tashkil etilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti.

Uchunchi bosqich – tashqi kuch sifatida, balansga ega bo'lgan va barqarorlikni ta'minlashda katta potensialga va tajribaga boy bo'lgan NATO.

Bu sistema to'g'ri. Chunki KXTT tarkibiga kiruvchi Markaziy Osiyo mintaqasining ba'zi davlatlari ShHT a'zolari hisoblanadi, shuningdek NATO bilan ham hamkorlik aloqalariga egadir. Alyans rahbariyatini Markaziy Osiyo mamlakatlari hududida NATO, KXTT, ShHT harbiy kuchlari mavjudligi qoniqtirmoqda. NATO qadam va qadam Rossiya va Xitoyning ta'sir zonasiga kirib borayotgani ham e'tiborga loyiqdir. Rossiyada va Xitoyda hamkorliksiz zamonaviy xavflarga qarshilik ko'rsatishning iloji yo'qligini tushunib yetdilar.

2001-yil 11-sentabr voqealaridan keyin AQSh boshchiligida NATO va Yevropa mamlakatlari Afg'onistonga harbiy kuchlarni kiritdi. Bu esa o'z navbatida O'rta Osiyoga ham g'arb davlatlarining kirib kelishini faollashtirdi.

2006-yil iyunda Shanxayda uchrashgan davlat rahbarlari deklaratsiya imzolashib, u O'rta Osiyo davlatlariga e'tiborni yanada kuchaytirish va bunda Rossiya hamda Xitoy sarmoyasiga alohida e'tibor qaratilishi belgilandi.³⁷

2008-yil avgust oyidagi Dushanbe sammiti arafasida bir qator ekspertlar, ShHT asosiy a'zolari sifatida RF va Xitoyning maqsadlari AQSh hamda boshqa g'arb davlatlari manfaatlariga zid keladi deb hisoblaydi. Shu qatorda ShHT va NATO o'rtasidagi munosabatlarga ham oydinlik kiritishga urinishdi.

³⁷ Центральная Азия и Кавказ. 2008. №6 (60), С.43-44

NATO harbiy-siyosiy tashkilot sifatida o'zining asosiy maqsadi erkinlikni va demokratiyani himoya qilish deb ko'rsatish mumkin. Yevropada yaxshi qo'shnichilik, bir-biriga ishonch, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy sohalardagi munosabatlarga yordam berish lozim edi. Ammo Sharq mamlakatlari NATO Yevropa davlatlari tomonidan emas, balki AQSh tomonidan boshqariladi deb hisoblashadi. Afg'onistonda o'zining faoliyatini olib borar ekan NATO O'rta Osiyo mamlakatlari va shu qatorda ShHT bilan ham munosabatlarni yaxshilashga, tartibga solishga urinishi tabiiy hol edi. Ammo AQSh va NATOning mintaqadagi faolligi ShHT doirasidagi Xitoy hamda Rossiyani tashvishga solishi tabiiy hol bo'lib, ShHT o'zini harbiy-siyosiy tashkilot sifatida bilmaydi. NATOni ShHT Afg'oniston va Iroq masalasida raqobatchi deb bilmasligini 2007 yildayoq ma'lum qiladi. Hatto 2007-yil 6-avgustda «Tayms» gazetasida ShHT va NATO munosabatlariga oydinlik kirituvchi maqola beriladi. Undan tashqari 2002-yil ShHTning Sankt-Peterburg sammitida qabul qilingan tashkilot Xartiyasining 1-moddasida ShHT terrorizm, separatizm, ekstremizm, qurol-yarog'lar va narkotik moddalarning noqonuniy savdosi, uyushgan jinoyatchilik, transmilliy jinoyatlar va boshqalarga qarshi kurashda har qanday xalqaro tashkilotlar, davlatlar bilan hamkorlik qilish va ma'lumot almashinishga qaror qilgandi. ShHT va NATO o'rtasidagi dastlabki munosabatlar Afg'oniston masalasida o'rnatilgan deb aytish mumkin.

2008-yil 18-sentabrda birinchi marta Yevropa ittifoqi va O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida xavfsizlik masalasidagi Forumi bo'lib o'tadi. ShHT bosh kotibi B.Nurgaliyev shu forumda ShHT xalqaro va mintaqaviy tashkilot sifatida xavfsizlik masalalarini doimo asosiy o'ringa qo'yishini va Afg'oniston masalasida BMT, YeI, NATO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni davom ettirishini bildirdi.³⁸

ShHT va NATO hamkorligi qanday natija berishi mumkin. Bu Afg'onistonda tinchlikka erishishda, mintaqaviy muammolarni hal qilishda yaxshi

³⁸ Центральная Азия и Кавказ. 2008. №6 (60), С.47.

samara berishi mumkin. Yevropa ittifoqi hamda NATO bir xil yo'nalishga asoslanishi mumkin, shunday ekan ShHT tarkibidagi Rossiya va Xitoy ham tashkilotning maqsadidan kelib chiqib o'zlarining siyosiy yo'nalishlarini belgilab olishlari mumkin.³⁹

Umuman olganda, so'nggi yillarda ShHTning xalqaro nufuzi doimiy ravishda ortib bormoqda. Mintaqaning Eron, Mo'g'uliston, Hindiston va Pokiston kabi davlatlarning tashkilotga qiziqishi ortib bormoqda. Bu keyingi yillarda mazkur davlatlarning oliy darajadagi delegatsiyalari muntazam ravishda ShHT sammitlarida qatnashib kelayotgani isbot bo'la oldi.

MDH, ASEAN tashkilotlariga a'zo davlatlar Afg'onistonning ShHT sammitlariga taklif etilishi, Belorussiya va Shri-Lanka davlatlarining muloqot hamkori sifatida e'tirof etilishi tashkilotning kelajak istiqbolidan darak beradi. Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, Pokiston Islom Respublikasi va Eron Islom Respublikasi Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a'zo bo'lish uchun rasman murojaat qilgan.

Jahon tajribasi umumbashariy va mintaqaviy muammolarga qarshi kurashishning samarali usuli mustahkam va ishonchli hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda. ShHTning o'z oldiga qo'ygan vazifalari esa barqaror taraqqiyot va farovon istiqbol uchun hamkorlikda kurash olib borishdan iborat bo'lib qolmoqda.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining butun dunyo mamlakatlarini o'zida birlashtirgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlik aloqalari alohida e'tiborga molikdir. Mazkur tashkilot bilan hamkorlik keyingi yillarda ayniqsa qizg'in tus olmoqda. ShHT va BMT o'rtasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik, ShHTning BMT va boshqa mintaqaviy tashkilotlar o'rtasida oliy darajada bo'lib o'tadigan yig'ilishlardagi ishtirokidan boshlangan edi.

2004-yil fevral oyida ShHTning Ijroiya kotibi (2007-yildan boshlab ShHTning Bosh kotibi sifatida faoliyat olib bormoqda) BMTga rasman murojaat

³⁹ Литературная газета. 2008 г. 15-21 октябрь. №42. С.2.

qilgandan keyin, 2004-yilning 2-dekabrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining 59-sessiyasida ShHTga Bosh Assambleya huzurida kuzatuvchi maqomini taqdim etilishi bo'yicha rezolyutsiya qabul qilindi.

Ma'lumki, xalqaro tashkilotlarda kuzatuvchi maqomi, odatda a'zo bo'lmagan davlatlarga yoki tashkilotning organiga a'zo bo'lmagan davlatlarga taqdim qilinadi. Ular asosiy majlislarda ishtirok etish va hujjatlarni olish huquqiga ega bo'lishdi.

2005-yilda BMT Bosh kotibi ShHT Ijroiya kotibiga rasman xat yo'llab, uni 2005-yildagi Butunjahon oliy darajadagi uchrashuv ishida va BMT Bosh Assambleyasining 60-yubiley sessiyasida kuzatuvchi sifatida ishtirok etishga taklif etdi. ShHT Ijroiya kotibi Chjan Deguan 2005 yil 16-sentabrdagi BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida o'z nutqi bilan chiqish qildi.

ShHT va BMT o'rtasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik, mazkur tashkilotlarning tuzilmaviy organlari doirasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik shaklida ham rivojlanib bormoqda. ShHT BMTning ESKATO (BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi. 1947-yilda tuzilgan) BMTRD kabi tuzilmalari bilan xalqaro huquqiy hamkorlik olib bormoqda.

2008-yilning yanvar oyida ShHT va ESKATO kotibiyatlari o'rtasida o'zaro foydali hamkorlikning muayyan shakllari va sohalarini ko'zda tutuvchi «O'zaro tushunish to'g'risida»gi memorandum, imzolandi. Mazkur memorandumda, shuningdek, birgalikda faoliyatni amalga oshirishni tahlil qilish maqsadida va aloqalarni yanada faollashtirish yo'llari to'g'risida ekspertlar maslahatlashuvlarini va muhokamalarini hamda o'zaro manfaatlarini aks ettiruvchi axborotlar almashuvi kelishib olingan.⁴⁰ 2010-yil 10-11 iyun kunlari ShHTning Toshkent sammitida ShHTga yangi a'zolarni qabul qilish tartiblari to'g'risidagi Nizom qabul qilindi. Bu Nizom aslida Tashkilotga boshqa istak bildirgan davlatlarni qabul qilish mexanizmini tartibga solish maqsadida ShHTga a'zo mamlakat maqomini olish uchun ariza bergan davlatning majburiyatlari to'g'risidagi namunaviy

⁴⁰ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 3-бет.

memorandumni 2011-yil 14-15 iyun kunlari Ostonada bo'lib o'tgan sammit chog'ida imzolandi.

Sammitda O'zbekiston prezidenti I.A.Karimov ShHTning xalqaro nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladigan quyidagi omillarni alohida ta'kidlab o'tadi.

Birinchidan, ShHT o'zining asosiy tamoyillaridan kelib chiqib, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni saqlashning ishonchli kafolati sifatida maydonga chiqmoqda, dunyo tez o'zgaruvchan, notinch bo'lib turgan hozirgi zamonda bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, bu ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va gumanitar sohalarda ko'p tomonlama samarali hamkorlikni tashkil etish borasida qo'yilayotgan va bajarilayotgan vazifalar, buning uchun zarur shartnomaviy huquqiy asosni shakllantirish va har bir mamlakat uchun ahamiyatli bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshirishdir.

Uchinchidan, ShHT davlatlarning teng huquqli birlashmasi bo'lib, uning faoliyati boshqa mamlakatlarning manfaatlariga qarshi qaratilmagan va qarama-qarshilik qiladigan blok xususiyatiga ega emasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda.⁴¹

Shanxay Hamkorlik tashkiloti vujudga kelishidan boshlab dunyo miqyosidagi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqada bo'lib kela boshladi. Avvalo ShHTning dunyodagi eng katta va ta'siri kuchli bo'lgan BMT bilan munosabati masalasiga to'xtalib o'tish zarur.

2009-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining BMT va ShHT o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi qarorining konsensus asosida qabul qilinishi muhim voqea bo'ldi. Hujjatni ishlab chiqishda ShHTga a'zo davlatlar O'zbekiston, Rossiya, Qozog'iston, Xitoy, Qirg'iziston, Tojikiston va ulardan tashqari Pokiston va Dominikan Respublikasi ishtirok etishdi.

Mazkur hujjatga BMT va ShHT o'rtasidagi aloqalarni yanada tizimliroq asosda yo'lga qo'yishga yordam beradi. Erishilgan qarorga muvofiq BMT Bosh kotibiga BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasalar, tashkilotlar, dasturlar va

⁴¹ Ўзбекистон овози. 2011 йил, 18-июн. №73 (31.349), 3-бет.

jamg'armalarning ShHT bilan ularning maqsadga erishishlariga yo'naltirilgan dasturlarni birgalikda amalga oshirish yuzasidan hamkorlik qilish bo'yicha ShHT Bosh kotibiyati bilan muntazam maslahatlashuvlar o'tkazish taklif etiladi. Shu munosabat bilan ushbu tuzilmalarning rahbarlariga BMT Bosh kotibi bilan maslahatlashuvlarni boshlash tavsiya qilindi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2004-yil dekabr oyidayoq BMT Bosh Assambleyasi 59-sessiyasining yalpi majlisida ShHTga Bosh Assambleya huzuridagi kuzatuvchi maqomini berish to'g'risidagi qarori (A/RES/59/48) qabul qilingan.

BMT Bosh kotibi Ch.Deguan boshchiligidagi ShHT delegatsiyasi ilk marta 2005-yilda BMT Bosh Assambleyasining 60-sessiyasida qatnashdi.

2007-yildan buyon ShHTning barcha tadbirlarida BMT Bosh kotibining yuqori martabali vakillari ishtirok etib, Shanxay Hamkorlik tashkilotining nufuzi oshib borayotganiga guvoh bo'lmoqda.⁴²

O'tgan davr mobaynida Shanxay Hamkorlik tashkiloti BMTning Osiyo va Tinch okeani uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi (ESKATO), BMT Taraqqiyot dasturi va BMTning boshqa tuzilmalari bilan aloqalarni yo'lga qo'ydi va doimiy ravishda aloqalarni kengaytirib bormoqda. Hozirgi kunda ESKATO va ShHT Osiyo taraqqiyot banki ko'magida ShHTga a'zo davlatlar hukumatlari o'rtasidagi xalqaro avtomobil yuk tashish bo'yicha qulay sharoit yaratish bitimi loyihasini tayyorlash jarayonida faol hamkorlik qilmoqda.

2008-yil yanvar oyida ShHTva ESKATO kotibiyatlari o'rtasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolandi. Unda o'zaro manfaatli hamkorlikning aniq shakli va sohalari, jumladan, birgalikdagi faoliyat olib borish, tahlil qilish va o'zaro manfaatli bo'lgan aloqalarning kelgusi yo'nalishlarini muhokama etish maqsadida ekspertlarning maslahatlashuvlarini o'tkazish masalalari ko'zda tutilgan.

⁴² Халқ сўзи. 2010 йил 10-март. №47 (4962), 1-бет.

BMT va ShHT o'rtasidagi aloqalarning rivojlanishi har ikkala tashkilotning ulkan salohiyatini birgalikdagi faoliyatga jalb etish, hamkorlikning global tarmog'ini kengaytiradi. ShHTga a'zo va kuzatuvchi hamda boshqa manfaatdor davlatlar, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar, birinchi galda BMT va uning afg'on muammosini hal etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bilan hamkorlik bu boradagi asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi mumkin.⁴³

ShHTga a'zo davlatlarning qariyb barcha deklaratsiyalarida xalqaro xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashda BMTning muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi va u bilan hamkorlikni kuchaytirish masalasi o'z aksini topgan.

O'zbekiston terroristik xavf – xatarga xalqaro miqyosda qarshi kurashishni tashkil etishda BMTning markaziy muvofiqlashtiruvchilik o'rnini mustahkamlashning qat'iy tarafdori ekanini bir necha bor e'lon qildi. Shuning uchun ham BMT va ShHT hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri xalqaro terrorizmga, radikalizmga, tajovuzkor ekstremizm va separatizmga, narkotrafika hamda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'lishi lozim.

Mazkur yo'nalishlarda ShHTda sa'y-harakatlarni birlashtirish hamda a'zo davlatlar huquqini himoya qilish organlari va maxsus xizmatlari amaliy hamkorligining ta'sirchan vositalari bo'lgan tashkilotning mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) muhim o'rin tutadi.

BMT va ShHT o'rtasidagi sheriklikning ulkan salohiyatga gumanitar sohada amalga oshirish juda katta samara beradi. Tibbiyot sohasidagi hamkorlik ham yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga qarshi kurashishda tajriba almashish va muvofiqlashtirish borasida muhim o'rin tutdi.

BMT va uning tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlarning ShHT bilan hamkorlikni kengaytirish BMTning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xususiyatga ega bo'lgan xalqaro muammolarni bartaraf etish bo'yicha har tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish borasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda xizmat qildi.

⁴³ Халқ сўзи. 2010 йил 10-март. №47 (4962), 2-бет.

BMT va ShHT hamkorligi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy, ijtimoiy va gumanitar taraqqiyot kabi ustuvor yo'nalishlarda hamda o'zaro manfaatli bo'lgan boshqa sohalarda rivojlanishi kerak. BMTning ulkan tajribasi va ShHT salohiyatining samarali tarzda uyg'unligi ushbu tashkilotning institutsional takomillashuviga yangicha turtki beradi. Mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, hamda mintaqa davlatlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qilish lozim.⁴⁴

ShHT aslida xavfsizlik masalalarini asosiy o'ringa qo'ygan holda tashkil etilgan deyishimiz mumkin. Xalqaro tashkilotlar, ekspertlar, siyosatchilar va siyosiy tahlilchilar ham shunday fikr bildiradi. Xususan, NATO bosh kotibining siyosat va xavfsizlik masalalari bo'yicha o'rinbosari Gyunter Altenburg shunday deydi «ShHT mintaqaviy hamkorlik asosida barpo etilgan xalqaro tashkilotdir».⁴⁵

NATO va ShHT o'rtasida iliq munosabatlar tashkilot vujudga kelgandan boshlab amalga oshirilmoqda. Mana shu ikki tashkilot «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi doirasida sheriklik munosabatlarini o'rnatgan. Aynan tashkilot doirasida NATO Rossiya, Xitoy va O'rta Osiyo respublikalari bilan ham aloqalarni yanada samaraliroq usullari borasida fikr yuritilmoqda.

ShHT hamkorlik aloqalarini olib borayotgan yana bir tashkilot ASEAN tashkiloti bo'lib, umuman olganda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish ShHT uchun juda muhim ahamiyatga ega.

2004-yilda ShHTning Toshkent sammitida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlari bosqichma-bosqich ravishda ko'p tomonlama uyushmalarning sheriklik tarmog'ini tashkil etish ishiga qo'shilish taklifi bilan xalqaro va mintaqaviy tuzilmalarga murojaat qilgandi. Ko'plab davlatlar va tashkilotlar, shu jumladan ASEAN (Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi) ham ShHT bilan hamkorlik qilish istagini bildiradi. Xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, ShHT va ASEAN o'rtasidagi hamkorlikning istiqboli, eng avvalo, ushbu tashkilotlar ko'plab

⁴⁴ Халқ сўзи. 2010 йил 10-март. №47 (4962), 2-бет.

⁴⁵ Халқ сўзи. 2004 йил 24-июн. №132 (3407), 1-бет.

mintaqaviy hamda global muammolar bo'yicha bir xil qarashga hamda nuqtaiy-nazarga ega ekanligi ayon bo'ldi.

2005-yil aprel oyida Jakarta shahrida ShHT va ASEAN kotibiyatlari o'rtasida imzolangan o'zaro anglashuv to'g'risidagi memorandum hamkorlik va ko'p tomonlama munosabatlarning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Memorandunga ko'ra, terrorizm va transmilliy jinoyatchilikka qarshi, giyohvandlik, giyohvand moddalar va qurol-yarog'larning noqonuniy savdosi, noqonuniy migratsiya va boshqalarga qarshi kurashish ishlarining istiqbollarini belgilab berdi.

Tomonlar iqtisodiy va moliyaviy sohalarda, turizm atrof-muhit hamda tabiiy zahiralardan foydalanish, energetika, ayniqsa gidro energetika va bioyongilg'i yo'nalishlarida hamkorlik qilishga kelishib olishdi.⁴⁶

ASEAN va ShHT o'rtasidagi aloqalarning eng muhim sohasidan biri terrorizmga qarshi kurashishdagi hamkorlik qilish hisoblanadi. Har ikki tashkilot siyosiy, iqtisodiy, ekologik va gumanitar o'lchamlardagi o'zaro o'xshash maqsad va vazifalar bilan birga, xalqaro tashkilotlarning huquqiy maqomi, imzolangan nizomlar hamda asos bo'lib xizmat qiladigan boshqa me'yoriy hujjatlarning mavjudligi kabi jihatlardan ham bir-biriga yaqindir.

ShHT va ASEAN davlatlarini geografik yaqinlik Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi umumiy maqsadlar, uyushmalarning faoliyat makonida tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdagi hamkorlik, manfaatdorlik, iqtisodiyot, transport, madaniyat va turizm kabi sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalari bog'lab turadi.

Sarmoyaviy yoki moliyaviy hamkorlikni o'rnatish shu bilan birga global inqiroz ta'sirini bartaraf etish bo'yicha axborot almashishni, hamda ishbilarmon doiralar o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yish yanada faollashtirish davlatlararo o'zaro munosabatlarning faollashuviga xizmat qildi.

⁴⁶ Халқ сўзи. 2010 йил 20-март. №55 (4970), 1-бет.

Bugungi kunda ShHT va ASEAN o'rtasidagi hamkorlik kotibiyatlar o'rtasida axborotlar va tajribalar almashish, ekspertlar maslahatlashuvlarini o'tkazish yo'li orqali amalga oshirib borilmoqda. 2008 yil noyabr oyida Xitoyning Pekin shahrida ShHT va ASEAN tashkilotlari bosh kotiblari darajasidagi uchrashuv bo'lib o'tdi. Shu uchrashuv chog'ida memorandum asosidagi muntazam aloqalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha har ikki tomonning asosiy maqsadlaridan biri ekanligi ta'kidlandi.⁴⁷

Yuqorida ShHTning BMT va ASEAN kabi yirik xalqaro tashkilotlari bilan hamkorligi masalasidagi ma'lumotlar ko'rib o'tildi. Shu o'rinda ShHTning NATO bilan mintaqaviy hamda global siyosat olib borishidagi hamkorligi masalasiga to'xtalib o'tamiz.

2005-yil 21-aprelda ShHT va ASEAN tashkilotlari kotibiyatlari darajasidagi uchrashuv bo'lib, unda bir-birini anglash bo'yicha memorandum imzolanadi. Shu tariqa ikkala tashkilot o'rtasida iqtisod, moliya, turizm sog'liqni saqlash, tabiatni muhofaza qilish va boshqa sohalardagi aloqalar yo'lga qo'yiladi. Yaponiya a'zolidagi ASEAN 40 yillik tajribaga ega tashkilot hisoblanadi va ShHT kabi yosh tashkilot uchun bu tajribadan foydalanishi mumkin. Yaponiyaning xalqaro obro'e'tibori ShHTga ko'p tomonlama aloqalarni yo'lga qo'yishda ahamiyati katta. Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan aloqalar Tokio va ShHTning munosabatlarida asosiy o'rin egallaydi. Mazkur aloqalar iqtisodiy va siyosiy sohalarda ustuvor ahamiyatga ega. Undan tashqari Yaponiya-Xitoy, Yaponiya-Rossiya munosabatlari nafaqat O'rta Osiyo balki boshqa mintaqaviy muammolarning hal etilishida ham muhim asos bo'lishi mumkin.

Yevropa ittifoqining ham asosiy maqsadi O'rta Osiyoning boy va hali yaxshi o'zlashtirilmagan energetika zahiralaridan foydalanishga harakat qiladi. Undan tashqari Osiyoning boshqa mamlakatlariga transport yo'li orqali o'tishda mazkur hudud o'ziga xos koridor vazifasini bajarishi lozim.

⁴⁷ Халқ сўзи. 2010 йил 20-март. №55 (4970), 2-бет.

Xalqaro aloqalar bo'yicha qirollik instituti tahlilchisi Edmund Xersin O'rta Osiyo respublikalari kelajakda Yevropa uchun juda muhim energetika manbalari yetkazib beruvchi hudud bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi.⁴⁸

2007-yil aprelda Berlin shahrida xalqaro konferensiya bo'lib o'tib, u «Shanxay hamkorlik tashkiloti: Yevropa ittifoqi bilan hamkorlik imkoniyatlari» mavzusida edi. Konferensiya garchi Germaniya tashqi ishlar siyosati kengashi hamda Germaniya iqtisodiyot bo'limining Sharqiy qo'mitasi tomonidan tashkil qilinadi. Unda ShHT Bosh kotibi o'rinbosari Bolat Nurgaliyev ishtirok etib, u Yevropa ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Pyer Morel bilan uchrashadi. Undan tashqari, Germaniyaning siyosiy doiralari ishtirok etishadi. Konferensiyada asosiy e'tibor ShHT va YeI o'rtasidagi hamkorlik masalalariga qaratdilar. Konferensiya oxirida Bolat Nurgaliyev Germaniya tashqi ishlar vaziri, shu bilan birga o'sha vaqtda Yevropa Ittifoqidagi vakil hisoblangan Klaus Mangold bilan ShHT hamda YeI o'rtasidagi hamkorlik masalasida suhbatlashadi.⁴⁹

Klaus Mangold faqatgina Germaniya tomonidan emas Yevropa Ittifoqi tomonidan ham ShHT bilan hamkorlik aloqalari juda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab o'tadi. Bunda YeIning birinchi galdagi vazifasi O'rta Osiyo bozoriga kirib borish deb, mazkur hudud doimo YeI qiziqishini uyg'otadi deydi. ShHT bilan aloqalar doirasida ShHTda energetika klubini tashkil qilish g'oyasini taklif qiladi. ShHT va YeI aloqalarining eng muhim va kuchli tomoni birgalikda terrorizm, separatizm, giyohvand moddalar hamda qurol-yarog'larning noqonuniy savdosiga qarshi kurashdagi hamkorlikdir deb uqtirdi.

Zamonaviy dunyoda YeI inson huquqlarini himoya qilish, kishilar yashash sharoitini yaxshilash kabi holatlarga alohida e'tibor bera boshladi. Shu o'rinda ayrim ekspertlar nima uchun O'rta Osiyo xavfsizligi masalasida ShHT faqat YeI bilan hamkorlik qilmoqda deb so'raladi, ammo aslida ShHT bu masalada barcha

⁴⁸Шанхайская организация сотрудничества: от становления к всестороннему развитию. М., МГУ, 2008. С.4.

⁴⁹ Фроленков В.С. Политика–экономические интересы Центральной Азии главных мировых и региональных факторов. М., Инс. Дальний Восток. 2008. С.64.

yirik xalqaro tashkilotlar va hatto mamlakatlar bilan ham hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

YeI mintaqa mamlakatlarini yagona manfaat yo'lida birlashtirgani holda ShHT ham kelajakda Sharqda shunday tashkilot bo'lishi ehtimoli borligi ta'kidlandi. Undan tashqari, YeI AQShning tashqi siyosat yo'nalishlaridan farq qiluvchi siyosat yuritdi.⁵⁰

⁵⁰ Фроленков В.С. Политика–экономические интересы Центральной Азии главных мировых и региональных факторов. М., Инс. Дальний Восток. 2008. С.78.

II BOB. SHHTning iqtisodiy aloqalari.

2.1. SHHTda Rossiyaning Markaziy Osiyo bilan munosabatlari

ShHTni Rossiya - Markaziy Osiyomunosabatlarsiz tasavvur qilish qiyin, SSSR tarqalganidan so'ng uning hududi jiddiy ravishda qisqardi⁵¹. Lekin Rossiya dnyoning eng yirik mamlakatligicha qolaverdi. SSSR tarqalgan bo'lsada Rossiyaning Markaziy Osiyorespublikalari bilan aloqalari yanada rivojlandi. Rossiya uchun Markaziy Osiyo va janubiy hududlar eng ahamiyatli hududlar hisoblanadi. Chunki bu hududlar orqali Rossiya janubiy havfdan foriq bo'ladi. Shuning uchun ham Rossiya hozirgi kunda havfsiz hududni tashkil eta olgan. Uning chegaralarida hech qanday tashqi havf yo'q. Agarda shunday vaziyat kelib chiqqanda ham Rossiya bu muammoni SHHT davlatlari bilan hal qila oladi. Hozirgi kunda islom radikalizmi, terrorizm, narkotik savdosi oqibatida 5mln rus aholisi aziyat chekmoqda. Aynan Islom radikalizmi Rossiyaning barcha hududlarida oz' ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda Afg'oniston butun dunyoga yiliga 800 tonna narkotik moddalar (jahon narkotik savdosida 90 % ni tashkil etadi) ni yetkazib beradi. Shundan 35 tonna heroin Rossiyaga noqonuniy ravishda eksport qilinadi. Rossiyadagi 5 mln narkomandan yiliga 70 ming kishi halok bo'lmoqda. Narkotik moddalar va terroristic guruhlar Markaziy Osiyoorqali Rossiyaga kirib kelmoqda⁵².

O'rta Osiyoda faqatgina Rossiyaning ta'siri emas, balki Yevropa Ittifoqi, AQSH va Xitoyning ham ta'siri kattadir. Pekin shahri Qirg'izistonning savdo hamkori, Qozog'iston va Tojikiston uchun asosiy import shahar va Turkmaniston bilan gaz savdosida asosiy rolni o'ynaydi.

Rossiya doimo ushbu hududda o'z ta'sirini saqlab qolishga urinib keladi va Markaziy Osiyodavlatlarini SSSR davridagidek siyosiy qaramlikka ushlab turishni istaydi.

⁵¹ Официальный сайт министерства транспорта Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.mintrans.ru.

⁵² Евразийская экономическая интеграция. 2010. №2 с.40

Hozirgi kunda butun dunyoni siyosiy tomonlama boshqarib turuvchi davlatlar Rossiya, Xitoy, Hindiston, AQSH va Yevropa Ittifoqi davlatlari tashkil etishadi. Bu jarayon XXI asr siyosatida "shaxmat taxtasi" yoki "katta o'yin" nomini olgan.

Ushbu gigantlarning O'rta Osiyodagi asosiy maqsadlari quyidagicha:

1. Siyosiy vaziyatni bir xilda saqlab turish (hech kim siyosiy portlashni istamaydi. Bu ayniqsa islom harakatini keltirib chiqaradi.).
2. Diniy tartiblarni saqlab qolish
3. Iqtisodiy hamkorlik o'rnatish orqali siyosatni barqarorlashtirish.

Ushbu uchta vazifa Moskva, Pekin, Dehli, Vashington va Bruseda asosiy maqsadni tashkil etadi. Shu maqsadda iqtisodiy va madaniy aloqalar Markaziy Osiyobilan yaxshi yo'lga qo'yilgan. Agarda YI yoki Xitoy Markaziy Osiyobilan iqtisodiy aloqa o'rnatmoqchi bo'lsa, dastlab madaniy va fan-texnika sohasida shartnomalar tuzadi. Ushbu gigant mamlakatlar Markaziy Osiyobozorlarida doimiy ravishda raqobatda bo'lib kelmoqdalar. Iqtisodiy raqobatlar ba'zida siyosiy raqobatlariga aylanib ketadi. Rossiya davlati YI davlatlarining O'rta Osiyoga krib kelishiga to'sqinlik qilib kelayapti. Ammo buning uchun siyosiy raqobatga kelish shartmas.

Arab mamlakatlarida bo'lib o'tgan inqilobiy vaziyatlar O'rta Osiyoning siyosiy hayotiga ta'sir etmadi. Chunki O'rta Osiyoda boshqaruv diniy hokimiyat asosida qurilmagan va bu hududlarda avtoritar monarxiya emas balki demokratiya tuzumi qaror topgan. Shunday bo'lsada mintaqada millatchilik ruhi mavjud. Buni biz Qi'rg'izistonda bo'lib o'tgan voqealari (O'sh voqealari) da ko'rishimiz mumkin.

Har qanday vaziyatda ham Rossiya va boshqa gigant davlatlar mintaqada tinchlikni ta'minlashlari shart. Hozirgi kunda j iddiy yordam olayotgan Arab dunyosi hukumati ham avtoritar monarxiya tuzumini saqlay olmayapti.

Mana shunday muammolarni yechimini topish uchun SHHT bir qator dasturlarni ishlab chiqmoqda. Hozirgi kunda iqtisodiy hamkorlik nisbatan kam darajada olib borilmoqda. Tashkilot a'zolarining har tomonlama shartnomalari

deyarli imzolanmagan. Ikki tomonlama iqtisodiy hamkorlik SHHT siz olib borilmoqda. Bunday kamchiliklarni RF prezidenti D.L.Medvedov Yekaterinburg (2009) va Toshkent (2010) sammitlarida aytib o'tdi.

SHHT ning asosiy muammolaridan biri bu har tomonlama iqtisodiy aloqalarning yo'qligidir. Tashkilotning budjeti bunday rejalarni amalga oshirish uchun juda kam. Lekin bu rejalar hozirgacha ham amalga oshirilganicha yo'q. Xitoy tashkilot bankini tashkil etishda va bu bank Pekinda joylashishi hamda bankni tashkil etishda eng ko'p ulushni qo'shishni taklif etdi. Lekin ishtirokchi davlatlar bu taklifni qabul qilishmadi. Rossiya esa SHHT ning xalqaro bankini tuzishni taklif etdi. Bu bank transport, elektrotexnika va qurilish sohalari uchun foydalanish taklifini kiritdi.

Bunday takliflarni Hindiston va Pokiston davlatlari ham kiritdilar. Hozirda SHHT BMT dan keying o'rinda turuvchi yirik tashkilotdir.

Rossiya Hindistonni SHHT ga qo'shilishini faol qo'llab-quvvatlamogda. Moskava sammitida Hindistonni ushbu tashkilotga qo'shish masalasi ko'rib chiqildi. 2009-yil dekabrda Hindiston bosh vaziri M.Sinxaning Rossiya prezidenti D.I.Medvedov bilan rasmiy uchrashuvida o'zaro iqtisodiy shartnomalar tuzildi. SHHT ning Ostonada bo'lib o'tgan konferensiyasida Hindistonning tashkilotga doimiy a'zoliqi masalasi ko'rib o'tildi.

Hozirgi kunda SHHT ning tashkil etilganiga qariyb 15 yil bo'lmoqda. Ushbu davr mobaynida asosan terrorizmga qarshi kurash va o'zaro iqtisodiy aloqalar yo'lga qo'yilmoqda. Buning isboti jahon iqtisodiy inqirozi davrida yaqqol namoyon bo'ldi. Bu davrda SHHT davlatlari AQSH va YI davlatlaridan ham o'tib ketdi.

Oxirgi yillarda bo'lib o'tayotgan SHHT sammitlarida iqtisodiy hamkorliklar yo'lga qo'yilmoqda. Tashkilotda Xitoy o'zining iqtisodi, fan-texnikasi va investitsiyalari bilan ajralib turadi. Markaziy Osiyodavlatlari Yevropa va Osiyo qit'alarini o'zaro bog'lovchi davlatlar hisoblanib, Rossiya va Xitoy tranzitlari uchun ahamiyatli hudud hisoblanadi. Qozog'iston va O'zbekiston uglevodorod, Qirg'iziston va Tojikiston elektroenergiya sohaslarida eksportlik faoliyatlarini olib

borishmoqda. Hozirda o'zaro chegaralarda iqtisodiy hamkorliklar olib borilmoqda. Bu omil ham SHHT ning iqtisodiy rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashkilotning iqtisodiy hamkorliklari dastlab 2003-yildan boshlangan edi. Bunday yig'ilishlar Ostona, Moskva, Urumchi, Chendu hamda Pekin shaharlarida o'tkazilgan edi. 2013-yilning 4-5- dekabr kunlarida ushbu tashkilot davlatlarining bosh vazirlari ishtirokida Bishkekda yig'ilish bo'lib o'tdi. Uchrashuvda 30 ga yaqin dasturlar ishlab chiqildi. Ushbu dasturlar orasida yo'llar qurilishidan tortib, tadqiqot institutini tashkil etish to'g'risida shartnomalar imzolandi. Shartnomalar orasida janubiy Chelyabinskda metallurgiya zavodlarini qurish belgilandi. Rossiya va Qirg'iziston elektr lampalar ishlab chiqarish, Tojikiston va Qozog'iston mayda va o'rtacha kattalikdagi GES lar qurishga kelishib oldilar. Ushbu shartnomalarga kuzatuvchi (Afg'oniston, Hindiston, eron, Mo'g'uliston) va hamkor davlatlar (Belorussiya, Shri-Lanka, turkiya) ham qo'shildilar.

2011-yilda SHHTning tashkil etilganiga 10 yil bo'ldi. Bu davr tashkilot uchun kichik ko'rsatgich, lekin qilingan ishlar juda katta. Ushbu davr ichida tashkilotga a'zo davlatlar ko'plab islohotlar o'tkazib, o'z ichki hududi havfsizligini ta'minlay oldilar. Harbiy hamkorliklar tuzilib, antiterroristik o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi va Osiyodagi barcha terroristik tashkilotlarning ro'yhati tuzib chiqildi. Hamkorlik iqtisodiy-madaniy va ilm-fan sohalari ham olib borildi.

Ushbu sohalarni rivojlantirish uchun ham alohida yig'ilishlar bo'lib o'tmoqda. 2013 yil 26-noyabr kunida Moskvada "SHHT davlatlarining o'zaro iqtisodiy hamkorligi" nomi ostida xalqaro ilmiy konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiya Rossiya Federatsiyasining Iqtisodiy instituti boshchiligida o'tkazildi. Konferensiyada o'zaro iqtisodiy hamkorlik qilish, quruvchilik infrastrukturasi yaratish, yoqilg'i-energetikasini rivojlantirish, transport kommunikatsiyasini yaratish, nanotexnologiyalarni tashkil etish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

SHHT ning asosiy e'tibori hamkor davlat hududida islohotlar o'tkazishga qaratilmoqda. Bu sohalardan biri transport yo'nalishidir. Hozirda butun Yevroosiyo

hududlarini o'zaro bog'laydigan yo'llar qurish ko'zda tutilmoqda. Agarda ushbu yo'nalishda shartnomalar imzolansa Anlantika okeanidan (Sankt-Peterburg,Rossiya) tortib, Tinch okeanigacha (Lyanyungan,KXR) bo'lgan hududlar o'zaro bir-biriga bog'lanar edi. Qisqacha qilib aytganda G'arbiy Yevropa va Xitoy hududlari o'zqaro bog'lanadi.Hozirda yer meridianining 40-yo'nalishi bo'yicha to'la avtomagistrllar qurish ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalish Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistonni Xitoy davlati bilan bog'laydi.Bu sohalar bilan birgalikda temiryo'l qurilishi, aviatsiya sohalarini bo'yicha ham shartnomalar imzolanmoqda.

SHHT ning yana bir asosiy hamkorlik yo'nalishlaridan biri axboriy va telekommunikatsion soha hisoblanadi.Yangi qurilayotgan magistrallarda zamonaviy elektrotexnika vositalarini qo'llash asosiy vazifalardan biriga aylanib kelmoqda. Bu vazifalarni asosan Rossiya va Xitoy davlatlari bajarishmoqda. SHHT yana sputnik aloqasini ham yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda.Ushbu rejalarga ko'ra boshqa mintaqalardan holi faqat SHHT davlatlari manfaati uchun aloqa tizimi joriy etiladi.

Zamonaviy hayotda yoshlarning ta'lim olishi juda muhim.2013-yilning oktabr-noyabr oylarida SHHT nazorati ostida Rossiyaning Oltoy vodiysida yoshlarni qo'llab-quvatlash markazi tashkil etildi.Unga ko'ra SHHT ning Yoshlar Kengashi tuzildi. Ushbu forumda Yevroosiyo qit'asidan 500 dan ziyod talaba yoshlar saralab olindi. Forumda hozirgi kundagi yoshlar faoliyati va iqtisodiy kadrlarni yetishtirish haqida munozaralar olib borildi.30-40 yoshlar orasidan yangi biznes loyiha qatnashchilariga iqtisodiy yordam berish masalasi ham ko'rib chiqildi.

Qisqacha qilib aytganda SHHT mintaqada havfsizlikni ta'minlash, "yomon uch illatga qarshi kurashish", hamkorlikni rivojlantirish hamda yoshlarga katta e'tibor qaratmoqda.⁵³

Rossiya va O'zbekiston

⁵³ Официальный сайт министерства транспорта Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.mintrans.ru.

Rossiya doimo O'zbekiston uchun foydali hamkor bo'lib kelgan. Buni isbotini jahon iqtisodiy inqirozi davrida bu ikki davlat o'rtasida olib borilgan iqtisodiy savdo misolida ham ko'rishimiz mumkin⁵⁴. 2012-yilda mamlakatlar o'zaro savdo qiymatini 12 % ga oshirishdi. Ushbu savdo aylanmasi pul qiymati 7.6 mlrd dollar tashkil etadi. Hozirgi davr iqtisodchilari Rossiya-O'zbekiston savdo aloqalaridan kelib chiqqan holda ushbu hamkorlik hech qachon to'xtamaydi degan fikrni ilgari surishmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda qaziladigan neft mahsulotlarining katta qismi Rossiyaning neft kompaniyalari hisoblangan

"Gazprom" va "Lukoil"ga eksport qilinmoqda. Jahon iqtisodiy jurnali hisoblangan Forbesda ko'rsatilishicha ushbu ko'rsatgich jahonda ikkinchi o'rinni, hamkorlik esa 19-o'rinni ko'rsatmoqda. Bu hamkorlik natijasida O'zbekiston davlatiga turli investitsiyalar kirib kelmoqda va jahon bozorida o'zbek mahsulotlarining mavqei oshmoqda.

Rossiyaning gigant neft kompaniyalari o'tgan yilda O'zbekiston bilan shartnoma imzolab, Qoraqalpog'istonning shimolida joylashgan Qo'ng'iro't tumanida "Shoxpaxta" neftni qayta ishlovchi kompaniya qurishni kelishib olishdilar. "TacnpOM" kompaniyasining habariga ko'ra 2013-yilda bu yerda 315 mln kub metr tabiiy gaz qazib olingan. Bu ko'rsatgich o'tgan yilga nisbatan 5 % yuqori natijani ko'rsatadi. Mutaxassislar 2013-yilda 7 ta korxonani qayta ta'mirlashdi va 20 ga yaqin yangi korxonani qurishdi. Natijada o'rtacha gaz qazib chiqarish kuniga 940 kub metrni tashkil etdi.

Dunyo neft bozorida yana bir asosiy rolni o'ynovchi kompaniya hisoblangan "Lukoil" O'zbekistonning "O'zbekneftegaz" va Xitoyning "Se-En-Pi-Si International LMT" kompaniyasi bilan hamkorlikda Orol dengizi bo'ylarida neft va gaz resurslarini izlash bilan shug'ullanmoqda. Izlanishlar natijasi Xauzak, Shodi, Qo'ng'iro't va Qandim hududlaridan 18.5 mlrd kub metr gaz borligi aniqlandi.

⁵⁴ Официальный сайт министерства экономического развития Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.economy.gov.ru

G'uzor hududidan esa jami bo'lib 368.5 ming tonna neft va 2 mlrd kub metr tabiiy gaz qazib olindi.

Ushbu davlatlar o'rtasidagi olib borilgan eng katta islohot Qandim hududida neftni qayta ishlash zavodining qurilishiga kelishib olish bo'ldi. Ushbu zavodning ochilishi 2016-yil oktabrda rejalashtirilgan. Zavodda zamonaviy texnikalar va Koreyaning Hyundai Engineering transportlari yordamidan foydalanishga kelishib olindi. Shartnomaning umumiy pul qiymati 238 mln dollarni tashkil etadi. O'zbekiston nefti sohasiga kiritilgan investitsiya hozirda 3.2 mlrd dollarni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich keying 9 oy ichida 500 mlnga ko'p qiymatni ko'rsatmoqda.

"Lukoil" kompaniyasi quyosh energiyasini ishlab chiqarishga ham alohida e'tibor bermoqda. 2012-yilda Navoiy viloyatida 100 megavat quvvatda energiya ishlab chiqaradigan stansiya qurildi. Ushbu stansiyaga 250 mln yevro miqdorda investitsiya kiritildi. Rossiya va O'zbekiston o'rtasida avtomobil va transport sohalarida ham shartnomalar imzolandi. Natijada "O'zavtosanoat" kompaniyasi Rossiyaga ko'plab rusumdagi avtomobillarni eksport qila boshladi. Rossiya esa O'zbekistonga butlovchi qismlar va texnik-jitkost suyuqligini eksport qilmoqda. Ushbu avtomobil sohasini hisoblaydigan bo'lsak mahsulot sotish qiyin bo'lgan Rossiya avto bozorlarida O'zbekiston 9-o'rinni egallab turadi⁵⁵.

Jahon iqtisodiy inqirozi davrida Yevropa avtomobil kompaniyalarining avto sanoati sezilarli darajada tushib ketdi. Rossiyaga eksport qilinadigan barcha avtomobillarning darajasi 5 % ga tushib ketdi. Lekin o'zbek avtomobillarining Rossiyaga eksport qilish darajasi pasaymadi. Yevropa eksportlarining qayd etishicha GM Uzbekistan kompaniyasi 2013-yilda rus avto bozorlarida 14-o'rinni egallagan. Birinchi o'rinlarda mashxur nemis kompaniyalari Mercedes-Benz, BMW, Audi va yapon kompaniyalari hisoblangan Mazda va Hondalar egallagan.

Yana bir yirik hamkorlik sohasi mobil aloqasi hisoblanadi. Bu sohada yaqqol monopolni "BbiMnejiKOM" (Rossiya) tarkibidagi "K)HHTeJi" kompaniyasining

⁵⁵ Сайт Посольства России в Китае. Интернет ресурс. Режим доступа: www.russia.org.cn.

eng yirik brendi hisoblangan Beeline operatorlik kompaniyasidir. 2013-yilda Beelinedagi o'zbek abonentlari soni 10 mln dan oshib ketdi.

Aloqalarda yana bir asosiy soha qishloq xo'jaligi hisoblanadi. O'zbekiston o'z hududida yetishtirilgan mevalar va sabzavotlarni an'anaviy ravishda Rossiyaga eksport qiladi. Hatto Novosibirsk va Saratov viloyatlarida O'zbekiston mahsulotlarini yaxshi saqlash uchun omborxonalar qurish rejalashtirildi. Agarda bu rja amalga oshsa, Rossiyaning boshqa hududlarida ham shunday omborxonalar qurish rejalashtirilyapti.

Rossiya yana O'zbekiston sanoatida ham o'z o'rniga ega. Masalan "G'arbiy O'ral mashinasozlik kompaniyasi" ni misol qilib olsak bo'ladi. Ushbu birlashma orqali Dehqonobodda hamkorlik zavodi tashkil etildi. Va O'zbekistonda birinchi bor osma yo'llar va ko'priklar qurish rajalashtirildi. 2013-yilda Olmaliq tog'-kon zavodi Rossiyaning "Тажмаш" zavodi bilan shartnoma tuzib, o'zaro axborot almashishdi. Ushbu zavodlar o'rtasidagi olib borilgan investitsiyalar 73.9 \$ ni tshkil etdi. Bu ko'rsatgichlar ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik hisoblanib, nafaqat ikki davlat iqtisodi uchunmas balki, tashkilotdagi davlatlar manfaati uchun ham foydalidir⁵⁶.

⁵⁶ Официальный сайт министерства иностранных дел Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.mid.ru.

2.2.Xitoy va Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy aloqalari.

Markaziy Osiyo Xitoy tomonidan elektr resurslarining asosiy hayot manbasi sifatida ko'riladi. Bunday qarash Qozog'iston, Turkmaniston, Ozarbayjon manfaatlarini qoniqtiradi va mintaqadagi boshqa mamlakatlarning maqsadlariga teskari emas⁵⁷. Xitoy bilan foydali munosabatlarni o'rnatib, Markaziy Osiyo davlatlari AQSh bilan o'zaro munosabatlarida o'zlarining milliy manfaatlarini himoya qilishda qo'shimcha yordam olmoqdalar. "Xitoy faktori" mintaqa mamlakatlariga Rossiya bilan ham o'zlarining aloqalarini yaxshilash imkonini beradi.

Umumiy qilib olganda Xitoyning Markaziy Osiyoga nisbatan munosabati o'zining mohiyatiga ko'ra strategik hisoblanadi. Xitoy siyosati liniyasidagi oxirgi fikrlarning tahlili mintaqadagi Xitoyning ta'sir darajasi birinchi navbatda, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan, Rossiya bilan, AQSh shuningdek YI bilan o'zaro munosabatlarda keng spektr bo'lishiga asos bo'ladi. Mintaqaning g'arbiy mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishi Markaziy Osiyo mamlakatlarning va butun kontinentning kelajagi uchun yaxshi natijalarga olib keladi.

Shuningdek, Xitoyning Markaziy Osiyodagi siyosati qanchalik darajada do'stona hamkorlikni saqlab qolishga qaratilsa, uning geopolitik muvaffaqiyatlari shunchalik darajada bo'ladi. Bu o'z navbatida mintaqa mamlakatlari va Rossiya bilan o'zaro munosabatlarda har tomonli hududiy bazaning mustahkamlanishida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha ehtiyojlariga sabab bo'ladi.

Hamkorlikning eng muhim sohasi shubhasiz energetika hisoblanadi. Xitoy xalq Respublikasi energoresurslar importiga ko'proq ehtiyot sezmoqda, uning qo'shnilari - SHHT energiyaga bo'ydir. Rossiya, Eron va Turkiston gaz zahiralari bo'yicha dunyoda 1,2 va 4 - o'rinda turadi. Rossiya eng katta neft eksportchisi hisoblanadi.

⁵⁷ «Центральная Азия. Геополитика и экономика региона». Москва-2010. Стр191

Xitoy 1999 yili 20 mln. tonna neftni import qilgan. 2010 yilga kelib u 100 mln. tonnagacha import qilish mumkin. 2020 yilga kelib Xitoy o'zini ichki neft mahsuloti bilan ta'minlay olmaydi. XXR ning tabiiy resurslarga boy hamkorlari uchun XXR iqtisodiyoti eksport uchun keng imkoniyatlarni taklif qiladi. Kelajakda Rossiya XXR ga 25-30 mlrd kub metr gazni, 15-18 mlyard. Kilovatt elektro energiyasini eksport qilishi mumkin, va 25-30 mln. tonna neftni Rossiya Xitoyda bir nechta atom elektrstansiyalarini qurilishni rijalashtirmoqda. XXR ShHT davlatlari bilan yangi quvir yo'llarini qurishni va birgalikda yangi konlarni o'zlashtirishni muhokama qilgan. 2003 yil sentyabrda ShHT davlatlari iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha bitimlarni imzolashdi. XXR Davlatkengashi vaziri Ven Szebogo iqtisodiy hamkorlikning strategik maqsadi sifatida ShHT doirasida erkin savdo zonasini yaratishni taklif qildi.

ShHT doirasida iqtisodiy hamkorlikning markaziy o'qi Rossiya Xitoy aloqalarini shakillantiradi. Rossiya Xitoyning uzoq Sharqda ishtirokidan manfaatdor. Rossiya Xitoyga texnologiyalarni faol eksport qilmoqda, rossiyalik mutaxassislar Harbinda texnoparkni yaratishga taklif qilingan. Rossiya va Xitoy Blogoveshensk tumanida Amur orkali ko'priki kurishni rejalashtirmokda.

Ko'pincha ShHT siyosiy va harbiy integratsiyasining muhim jahon markazi bo'lishga qodir. ShHT ning anti amerika salohiyatini oshirish kerak emas. Birinchidan, ShHT AQSH dan iqtisodiy va harbiy sohada zaifroqdir. Ikkinchidan, ShHT davlatlari o'rtasida to'la ishonch va yagona fikr mavjud emas, Urta Osiyoning boshqaruv elitasi Rossiyaning to'la siyosiy nazorati ostiga qaytishga tayyor emas, XXR nafaqat Rossiya bilan balki boshqa qo'shni davlatlar bilan ham hamkorlik qiladi. Yaqin kelajakda ShHT AQSH ning mintaqadagi aralashuviga qarshilik ko'rsatish uchun yagona bo'ladi. Rossiya va XXR ning kelgusidagi hamkorligi ham kafolatlanmagan. Xitoyning kam aholili Uzoq sharq va Shaqiy Sibiga demografik bosimi muammosi mavjud. Ikkila davlat kuchining balansini o'zgartirish muammosi ham mavjuddir. Xitoyga nisbatan Rossiya texnologik eng rivojlangan davlat ekan bu vaziyat Xitoyning rivojlanish bo'yicha o'zgaradi. Xitoy

Rossiyadan iqtisodiy kuchlirokdir. Xitoy kelajakd texnologik va harbiy sohada Rossiyadan kuchliroq bo'ladi. Voqealarning bunday rivoji bu ikala davlatning munosabatlariga qanday ta'sir etishini aytish qiyin. SHHT ning kuchli xalqaro birlashmalarga rivojlanish istiqboli yo'q. Ishning asosiy sababi shundan iboratki, asosiy a'zo-davlatlar ularning tashkilotga to'la boglanishga to'sqinlik qiluvchi shaxsiy strategik qiziqishlarga ega. Harbiy va siyosiy birlashish uchun salohiyat yetarli emas.

Rossiya va Xitoyning bo'lg'usidagi o'zgarishi bilan bogliq ba'zi noaniqliklar mavjud. Ta'kidlash kerakki, SHHT alohida sohalarda aniq hamkorlik sxemasi bo'yicha rivojlanishda davom etadi va siyosiy yoki harbiy ittifoqqa aylanmaydi. Tashkilotni tezroq rivojlantirish kerak. XXR ning iqtisodiy, siyosiy, kelajakda esa harbiy kuchining rivojlanishiga qaramasdan XXR asoslardan mahrum bo'ldi: tashkilotning barcha hujjatlari uning a'zolarining teng huquqliligi haqida gapirdi. SHHT ning yangi rivojlanish bosqichiga chiqishi uni obro'li xalqaro institutlar qatoriga qo'ygan va Rossiya milliy manfaatlarining ivojlanishiga ko'mak bergan bo'lar edi. Iqtisodiy o'sish SHHT uchun muhim birlashtiruvch kuch bo'ldi. SHHTda YAIM ning o'sish bo'yicha sardorlar, Xitoy Qozogiston, Tojikiston va O'zbekistondir. Rossiya bu kompaniyada oxirgi o'rinda edi. Aynan Rossiya va xitoy tashkilot rahbari hisoblanadi va ko'plab ekspertlar SHHTni bu ikkala davlatning hamkorlik mexanizmi kabi qaraydi. Undan tashqari, tashkilot Markaziy Osiyoni «tartibga solish» mexanizmi hisoblanadi. SHHT ning iqtisodiy asosning muhimligi barcha a'zo davlatlar tomonidan belgilangan. Tashkilotni tuzish haqidagi Deklaratsiyada Hartiyada - SHHT ning asosiy maqsadlari va vazifalaridan eng muhimi - mintaqada har tomonlama o'sishga, ijtimoiy va madaniy rivojlanishga ko'maklashish edi.

Hozirgi vaqtda SHHTning iqtisodiy bosqichida faol ish olib borilmoqda. Iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari va maqsadlari mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning asosiy maqsad va yo'nalishlari haqidagi hukumatlararo memorandumda aniqlangan. Hujjat 2001 yil sentyabrda a'zo — davlatlar

boshliqlarining birinchi uchrashuvida qabul qilingan edi. 2003 yil sentyabrda Hukumat boshliqlari Kengashi majlisida 6 ta davlatlarning ko'p tomonlama savdo - iqtisodiy hamkorligining Dasturi tasdiqlandi.

U uzoq kelajakka - 2020 yilgacha mljallangan. Yaqin kelajakda esa SHHTda barqaror, transporant qoidalari va muolajalarni shakllantirish vazifasi qo'yilgan. Bu dasturni bajarish bo'yicha tadbirlar rejasini 2004 yil sentyabrda Bishkekda hukumat boshliqlari kengashi majlisida qabul qilingan edi, shunday qilib ketma-ket hamkorlik dasturidan uni amalga oshirish rejasiga, rejada uni amalga oshirish mexanizmiga.

SHHT doirasida keng miqiyosili iqtisodiy o'zaro hamkorlikni rivojlantirishda a'zo - davlatlar iqtisodiyotining nodavlat sektorlarini jalb etish kerak. SHHT a'zo - davlatlarining ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorligi dasturida uning qoidalari tuzilgan shartnomalar asosida davlat organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan amalga oshirilishi haqida aytilgan. Tashkilot doirasida iqtisodiy loyihalarni moliyalatirish ham ko'rib chiqilgan. U ham davlat, nodavlat kanallarni ko'rib chiqadi.

SHHT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning yana bir muhim jabhasi: SHHT mexanizmi 6 ta a'zo — davlatlarning aniq loyihalarida majburiy ishtirokini nazarda tutmaydi. Turli loyihalar SHHT formatiga ega bo'lishi mumkin. SHHTning ko'plab a'zo - davlatlari ikki yoki uch tomonlama asosda aynan SHHTga a'zoliigi tufayl iqtisodiy muammolarning yechimlarini topa olgan.

Yana bir muhim detal mavjud. SHHT ochiq tashkilot, shuning uchun iqtisodiy hamkorlik boshqa davlat va birlashmalarning ishtirokini ko'rib chiqadi. Bular nafaqat kuzatuvchi - davlatlar, balki boshqa davlatlar ham bo'lishi mumkin.

SHHT dagi iqtisodiy hamkorlik muhim natijalarni namoyish etadi - energetika, transport va axborot sohasidagi hamkorlik keta-ket rivojlanmokda. SHHT ning zaif tomoni amalga oshirishning samarali mexanizmining yetishmasligi hisoblanadi. Bu masala yechimi yo'li erkin savdo zonasini yaratish jarayonini tezlashtirishda edi. Mazkur sohadagi muhim kelishuvlar 2003 - 2004

yillarda SHHT ishtirokchi - davlatlari bosh vazifalari uchrashuvlarida erishildi, unda SHHT doirasida erkin savdo -iqtisodiy zonasini yaratish g'oyasi ilgari surildi. Keyingi 20 yil ichida ishtirokchi davlatlar tovarlar, kapitallar, xizmatlar, texnologiyalarning erkin harakatlanishini ta'minlashga roziligini bildirdi. Mazkur goyaning mohiyati mundan iboratki, Yevro Osiyo mintaqasining siyosiy va iqtisdiy haritasi avvalgidek parchalangan edi, banda esa mintaqaviy kelishmovchiliklar va nobarqarorlik sababdir.

Xitoy Xalq Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari eng asosiy siyosati sifati sifatida maydonga chiqdi. Eksportning asosiy qismi oziq- ovqatlar yengil sanoat mollarini tashkil etdi. Bu ayniqsa ,Qozog'iston bilan bo'lgan iqtisodiy aloqalarda yaqqol namoyon bo'ldi .Chet-el sarmoyasining 20 % i Xitoyga to'g'ri keldi . Savdo - sotiq hajmi Sin-Szyan va Qozog'iston o'rtasida 2,4 milliard AQSH dollarini tashkil etishini o'ziyoq ,Xitoy hukumatining Sin-Sziyan viloyatidagi separatistik kayfiyatini tanobini tortib qo'yish imkonini berdi. Savdo-sotiq aloqalarining 50 foizi (Sin-Sziyan-Uyg'ur Avtonom hududi SUAR) ga to'g'ri keldi. Qozog'istonga 43 foiz , Qirg'izistonga 14 foiz savdo hajmi to'g'ri keldi . Xitoyning to'rtta shahri (Szmun , Takshichen , Turdot , Xunjerab) Qozog'iston va Qirg'iziston bilan chegaradosh hududlar to'laligicha savdo-sotiq ushun ochib qo'yildi . Qirg'izistonning Norin shahri Xitoy bilan savdo qilish uchun erkin savdo hududiga aylandi . Xitoy savdo aloqalari 2000-yillarga kelib beixtiyor yuksak darajaga ega bo'ldi chunki endi kelajakda Markaziy Osiyo savdo-sotiq ishlari AQSH yoki Rossiya emas aynan Xitoy o'z qo'liga olib ulgurgandi.

Markaziy Osiyo siyosiy qatlami nihoyat tushunishdiki , (oxir oqibatda) Xalqaro valyuta fondidan yordam olish kerak kredit tarzida yoki ancha payt kechiktirib to'lash uchun shu shartlarni amalga oshirdi. Buning uchun ular Yevropa ittifoqiga yoki AQSH ga murojaat qilish va shu orqali o'z iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilamoqchi bo'ldilar. Yevropa ittifoqi va AQSH bo' borada ularni qoniqtirardi. Yevropani " Demokratlashtirish " siyosatiga qarshi

unga qaqshatqich zarba berish Xitoy nafaqat millionlab dollarlarni kreditga berish balkim 1-2 foizni kreditni arzonlashtirish hisobiga o'z maqsadiga yetish yo'llarini qidira boshladi. Bu paytga kelib, Rossiya va Markaziy Osiyo o'rtasida byurokratik bitimlar tuzula boshladi. Bu bitimlar amalda hayotga joriy bo'lmasdan inqirozga uchradi Xitoy esa o'z maqsadiga erishish uchun bitim imzolangan paytidayoq uni ijro etish uchun kirishardi . Natijada geosiyosiy bo'shliq Rossiya foydasiga emas, Xitoy foydasiga hal bo'la boshladi. Misol uchun transport va elektroenergiyaga sarflangan mablag' Qozog'iston, Qirg'iziston , Tojikiston va O'zbekiston chegara hududlariga qo'yildi chunki bu hududlar Xitoyga juda qulay edi va mana shu hududlarda Rossiyaning o'rnini juda oz edi . Xitoy sarmoyasi bu regionlarga kirishi to'xtovsiz ravishda oshirib boriladi.

Markaziy osiyo davlatlariga XXRning sarmoyasining to'g'ridan to'g'ri kirib borishi

Xitoyning to'g'ridan - to'g'ri Qozog'iston hisobiga to'g'ri keladi (36 mlliyart dolar). Qozag'istonda ming-minglab firmalar ochildi. Albatta qo'shma korxonalar ham tez suratlar bilan oshib bordi . Bu sarmoyalar neft qazib olish bank soxasi masalasining avtomobillarni yig'ish oziq - ovqat soxasiga qaratilgan 2007-yili " qozoq ato ishlab chiqarish " va Xitoy davlat Guandun ato-energetika korporatsiyasi o'rtasidagi hamkorlik Xitoy AES xomashyo bilan ta'minlash va Xitoy energetikasini rivojlantirish uchun xizmat qilish kerak edi. O'zbekistonda Xitoy kichik savdo tashkilotlari ustunlik qiladi. U yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati bilan chegaralangan Xitoy elektron kompaniyalari o'z sarmoyasini kiritishni uncha xohlamaydilar. Chunki to'g'ridan-to'g'ri transport aloqasini yo'qligi chet-el sarmoyasini kirishiga qiyinchilik tug'dirardi. Yo'l faqat Qozog'iston va Qirg'iston orqali o'tadi . So'nggi eng ko'zga tashlanib turuvchi (ko'rinarli) kelishuv O'zbekiston va Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida neftni qayta ishlash va geologik qidiruv ishlari to'g'risidagi bitim ekanligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiqdir .

Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ma'lumotiga ko'ra Qirg'izistonda Xitoy sarmoyasi hisobiga 384 ta kompaniya bor. Amalda esa, shulardan 150 tasi ishlamoqda. Bu tashkilotlar savdo - sotiq qurilish va Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Xitoy sarmoyasining salmoqli hajmi Qozog'iston nefti va gazi hamda Qirg'izistonning oltiniga to'g'ri keladi. Qirg'iziston Turkmaniston Xitoy gazaprovodini Qirg'iziston orqali o'tkazishga Qirg'iziston Xitoy chegara hududlariga elektrenergiyasi yetkazib berishni ham taklif qilmoqda. Tojikiston ham Xitoy kapitalidan elektroenergiya sohasini yaxshilash uchun sarflamoqda. CHegara hududlarini xavfsizligini ta'minlash yo'lida ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda⁵⁸.

Xitoy va Rossiya qiziqishlarining bir – biriga mos kelishi.

Xitoy va Rossiyaning Markaziy Osiyo yuzasidan qiziqishlari bir qancha jihatlari bilan bir – biriga mos keladi. Yevropa va AQSHni bu hududlardagi ta'sirini o'tkazishiga yo'l qo'ymaslik bu ikki buyuk davlatlarning asosiy maqsadi edi. Ular AQSH ni bir qutublidunyo tashkil etishiga qarshi harakat olib bordilar. Bu yerda asosiy narsa mablag' asosiy rol o'ynadi. Bu kuchlar markazida Xitoy va Rossiya turardi. Shuni alohida takidlash lozimki, Pekin, AQSH va NATO ning Markaziy Osiyodagi aralashuviga butunlay barham berish rejasini oldiga maqsad qilib qo'ydi. Shu bilan birgalikda Rossiya AQSH ning G'arbiy yevropadagi ta'sirni kamayishidan manfaatdor edi. Chunki Yevropaga Rossiya to'g'ridan – to'g'ri ta'sir qilaolmas edi. Rossiya va Xitoy o'rtasidagi o'zaro qarama – qarshiliklarning asosiy mazmuni shundan iborat ediki, Xitoyning Markaziy Osiyodagi hukumronlik roli Rossiyaga yoqmas edi. Bu avvalo iqtisodiy aralashuv keyinchalik siyosiy ta'sir o'tkazish maqsad qilib qo'yilgan edi. Ammo Xitoy o'z imkoniyatlarini kengaytirish uchun “ Umumiy qo'shnicilik” munosabatlarini yaxshilay boshladi hamda Markaziy Osiyoda o'z ta'sirini oshirdi va Rossiyani ta'sirini ancha kamaytirib berdi. Markaziy Osiyoning Rossiya ta'sir

⁵⁸ Кузьмина Е.М. Адаптация экономик Центральной Азии к геополитическим вызовам современности, М., ИЭ РАН, 2010.с.18

doirasidaligini hisobga olgan holda siyosatda ustunlikka erishish uchun Markaziy Osiyoda, ya'ni bu hududlarga bosqinchilik harakatlarini olish uchun (SHHT) Shanxay hamkorlik tashkilotiga asos soldi va o'z qo'shnilariga ham iqtisodiy ham siyosiy ko'mak berish bilan Markaziy Osiyo davlatlari orasida baland mavqeyga ega bo'lib oldi va Rossiyaning bu hududlardagi o'rnini ancha pasayishiga sababchi bo'ldi.

Xitoy aynan Rossiyaning narx navoning oshishiga sababchi bo'lishiga yo'l qo'ymadi. Nihoyat Rossiya va Xitoy o'rtasidagi bir fikrga kelisha olmaslik tomonli shundan iboratki bu energetika masalsiga taqaladi. Bu yerda Markaziy Osiyodan yuborilayotgan elektrenergiyasi aynan Xitoy orqali o'tishini xoxlamoqda Kasbiy orqali o'tishi mumkin bo'lgan gaz o'tkazgichlarning bir qismi aynan Xitoy orqali o'tishini xohlamaoqda.

Transport va energetika.

Xitoyning Markaziy Osiyo faolligini – qo'shimcha transport yo'llarini qurishda ko'rish mumkin uning maqsadi Markaziy Osiyo Regionidan Hind okeaniga chiqish va Yevropa “ko'prik” vasifasini o'tgash edi. Bu temir yo'l avtomobil yo'llari va shu mamlakatlari orqali gaz va neft quvurlarini o'tkazishning ta'minlash edi. Xitoy Markaziy Osiyoni o'zining elektroenergiyasining ta'minlovchisi (donor) sifatida ko'radi. 90 – yillarda Qozog'iston birinchilardan bo'lib, Xitoyga arzon narxda uglevodorod xomashyosini yetkazib berishga rozi bo'ldi. SSSR paytida Markaziy Osiyodan borayotgan gaz avvalo Rossiyaga borib keyin Polshaga yo'naltirilardi. Demak uglevodorod, gaz Rossiya orqali Yevropaga yo'naltirilgan bir paytda endi (Transkasbiy) Yevropaga yetkazib berish kerakmi yoki shu xomashyoni Janubiy Osiyoga (Trans Afg'on loyiha) yetkazib berish kerakmi degan savol turardi. Albatta Xitoy neft va gaz ekspansiyasi o'z hukumronligini to'liq joriy etishning imkoni yo'q edi. Bu yerda asosiy og'riqli joy narx masalasi bo'lib hisoblanar edi. Elektroenergiyaning narxi Xitoyda Yevropaga nisbatan ancha past bo'lganligini

ko'rsatadi. Bu Xitoyning Regiondagi egallab turgan mavqeyi juda katta ahamiyatga ega bo'lib Markaziy Osiyoda ham katta o'rin tutadi⁵⁹.

Iqtisodiy Xitoy Xalq Respublikasi uchun uzoq muddatli rejalaridan biri deb etirof etish maqsadga muvofiqdir. Chunki Markaziy Osiyo ayniqsa Qoz'g'iston va Tojikiston uning elektroenergiya manbai bo'lib qolishi ancha haqiqatga yaqin. Jahon iqtisodiy krizisi Xitoyday qudratli davlatni chetlab o'tishi mumkin emas edi. 2008 – yilning 2 – yarmida Xitoy iqtisodida ancha pasayish kuzatila boshlandi. Xitoy mahsulotlarining AQSH, Yevropa ittifoqi va boshqa taraqqiy etgan mamlakatlar sotib olardi. Endi iqtisodiy krizis hukum surayotganda krizis o'z so'zini aytmadan iloji yo'q edi. Elektroenergiya va oziq ovqatlarning qimmatlashuvi, importning (2009 – yil 25 %) oshuvi salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Tashqi bozorda Xitoy maxsulotiga talabning pasayishi (2008-yildan boshlab) Xitoy Xalq Respublikasining bir qancha chetki mahsulot chiqaruvchi korxonalarini yopishga majbur bo'ldi. Mamlakatda ishdan bo'shatish 2008-2009-yillarda ishsizlarning sonini 28 million kishiga yetganligini o'ziyoq Xitoy uchun qanchalik zarba bo'lganligini bilib olish mumkin.

2008 - yil bo'lib o'tgan Xitoy Xalq Respublikasi davlat yig'inida mamlakatning ichki siyosatini to'g'rilash uchun 10 banddan iborat reja ishlab chiqildi. Iqtisodiy krizisni oldini olish va uni bartaraf etish masalasiga Xitoy Xalq Respublikasida ikki yil davomida ancha salmoqli mablag' ajratishga sababchi bo'ldi. Buning uchun Xitoy to'rt trillion yuan (580 milliard dollar) ajratdi. Markaziy byudjet 1,18 trillion yuan (110 milliard dollar) ajratdi. Avtomobil yo'llarini qurilishiga 100 milliard dollar ajratildi. Iqtisodiy krizisni bartaraf etishni temir yo'lni 120 ming kilometrga yetkazish kerak edi. Markaziy Osiyo iqtisodi chetdan sarmoya kiritilishidan manafaatdor edilar va unga muhtojdir. Bu o'rinda Xitoy sarmoyasi bundan keyin oshib boraveradi. Dastlabki paytlarda Xitoy savdosini xususiy korxonalar hisobiga to'g'ri kelganligi qanchadan – qancha kambag'al olialarni qiyinchilik davrlarini yaxshiroq o'tishida ancha madad bo'ldi

⁵⁹ Булатов А.С. Мировая экономика и международные экономические отношения М.: Магистр, 2008. С21

deyish mumkin. Kelajakda Xitoy yana har xil maxsulotlar yengil sanoatda, og'ir sanoatda ko'plab ishlab chiqarish oshib boraverarkan, bu o'z – o'zidan maxsulotlar arzonlashuviga sabab bo'ladi. Xitoy Markaziy Osiyo o'z o'rnini mustahkamlayveradi. Shanxay hukumronlik tashkiloti uning Markaziy Osiyodagi o'rnini oshishiga sababchi bir qurol deb aytish joizdir. Agarda Shanxay hamkorlik tashkilotining faollashuvi yaxshi natija bermasa bu Xitoy Xalq Respublikasining bu hududlardagi faolligiga o'z so'zini aytadi. Bu hududlarda Xitoyning mavqeyini oshib borishi Rossiya uchun nafaqat yaxshi hamkor, shu bilan birgalikda raqib ekanligini ham ayitb o'tish maqsadga mufoiqdir. Iqtisodiy jiplashuv davom etarkan bu borada siyosat va iqtisodda Rossiyaning qo'li baland keldimi yoki Xitoynikimi. Ular qanday yo'ldan o'z rejalarini amalga oshiradilar. Agar Rossiya Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi orqali o'z ta'sirini oshirmoqchi bo'lsa Xitoy mos (Shanxay hamkolik tashkiloti) orqali o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ikki buyuk mamlakat nafaqat kuchli hamkor balkim, kuchli raqiblar ekanligini takidlab o'tish iqtisodiy krizisni davom etar ekan bu Xitoy Xalq Respublikasi Rossiya uchun ancha jiddiy muommolarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Chunki ular o'z egallab turgan obru etiborini saqlab turish uchun ko'p harakat qilishlari kerak bo'ladi. Chunki iqtisodiy krizis barcha mamlakatlar iqtisodini bir necha yillarga ortga dsurib yuborishi tabiiydir⁶⁰.

⁶⁰ Булатов А.С. Мировая экономика и международные экономические отношения М.: Магистр, 2008.с.24

2.3. ShHT: iqtisodiy muammolar

Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) ko'p tomonlama hududiy hamkorlik maqsadida tashkil etilgan, rivojlanayotgan tuzilma hisoblanadi. O'zining qisqa muddatli faoliyati davomida ShHT dinamik rivojlanish uchun, hududiy hamkorlik uchun juda ham qulay tuzilma ekanligini isbotladi.

Tashkilot ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmini muvaffaqiyatli namoyish etmoqda, ular a'zo-davlatlar o'rtasida turli bosqichlarda koordinashtirilgan hamkorlik uchun asos bo'lib xizmat qiladi, shuningdek ular boshqa davlatlarning va xalqaro institularning ishtroki uchun imkoniyat yaratadi. ShHT asta-sekinlik bilan hududiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash mexanizmini kuchaytirmoqda, bir vaqtning o'zida o'zaro qiziqishga ega bo'lgan iqtisodda va boshqa sohalarda hamkorlikni taklif etmoqda⁶¹.

2004 yil dekabrda ShHTga kuzatuvchisi maqomi berilishi, ShHTning muhimligi, foydaliligi va samarali ekanligining tan olinishi demakdir. ShHT shuningdek Janubi-Sharqiy Osiyo Davlatlari Assotsatsiyasi (ASEAN) va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bilan institutsional hamkorlik uchun ikki tomonlama shartnoma imzoladi. Bundan tashqari ShHTda boshqa davlatlar bilan, xalqaro institutlar va subhududiy guruhlar bilan hamkorlik harakatlarini kengaytirishga imkoniyat paydo bo'ldi. 2005 yilda Shanxay hamkorlik tashkiloti o'zining geografiyasini Pokiston, Eron, Hindiston yo'nalishida kengaytirdi, bu davlatlar tashkilotda kuzatuvchi davlatlar maqomini oldi. Mo'g'iliston esa 2004 yildayoq ShHT a'zosiga aylangan edi. Tashkilotning doimiy vakillari va kuzatuvchi-davlatlar, agar xohlasalar to'liq a'zo maqomini olishiga tayyor bo'lishlariga umid bor.

ShHT da dastlabki masalalar asosan xavfsizlik va siyosiy barqarorlikka qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunda ShHTda asta-sekinlik bilan bevosita iqtisodiy va energetic hamkorlikka o'tish kuzatilmoqda, shu bilan birga xavfsizlik sohasidagi

⁶¹ Фазал – ул Рехман. «Проблемы экономического и финансового сотрудничества в рамках ШОС» Алматы. 31 мая 2006. VneshMarket.ru Внешнеэкономическая деятельность.

aloqalar ham kuchaytirilmoqda. Qizig'i shuki ShHT ilk tuzilgan davrlarda unga ekstrimizm, terrorism va separatizm muammolariga qarshi kurashuvchi xavfsizlik forumi sifatida qaralgan. Bu tashkilot haqida vujudga kelgan yana bir fikrga ko'ra, u Xitoy va Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan qaratilgan strategik faoliyati uchun, shuningdek resurslarga boy Markaziy Osiyo hududida AQSHning harakatlari kengaymasligini nazorat qilish uchun tuzilgan. Vaqt o'tishi bilan ShHTga nisbatan berilgan fikrlar asossiz va not'g'ri ekanligi o'z isbotini topdi.

ShHTga Pokiston, Eron va Hisdisotnning kuzatuvchi davlat sifatida qo'shilishi, Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan kuchliroq pozitsiyaga ega bo'tgan Xitoy va Rossiyada o'zining hal qiluvchi pozitsiyasi larini kuchsizlanishiga xavf soluvchi vaziyatni vujudga keltirdi. Shuni tan olish kerakki har qanday xalqaro tashkilotta bitta yoki ikkita yetakchi davlat mavjud bo'ladi va u davlatlar tashkilot tayanchi vazifasini bajardi. ShHTda shunday o'rinni Rossiya va Xitoy egallagan. Shuni ham takidlab o'tish kerakki, ShHT faoliyatining muvaffaqiyati va omadsizligi ushbu asosiy ishtrokchilar o'rtasidagi strategik hamkorlik va strategik raqobat bilan bog'liq. Shuning uchun ShHTni bipolyar tashkilot deb atasak noto'g'ri bo'ladi, kelajakda ShHT o'z yo'lida haqiqatdan ham samarali bo'lishi uchun bu ikki bosh davlat o'rtasida muvozanatni ta'minlashda muhtojlik seza boshlaydi.

Hozirgi kunda ShHT asta-sekinlik bilan ko'p narsani o'z ichiga oladigan tashkilot sifatida rivojlanmoqda va u o'z a'zolarining siyosat, savdo va investitsiyalashtirish, mudofa, atrof-muhitni himoya qilish, madaniyat, fan va texnologiya, ta'lim, energetika, transport, kredit va moliya va boshqa o'zaro foydali sohalarda hamkorlik qilish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

ShHT doirasida davlat rahbarlarining 2003 yil sentabrdagi uchrashuvida "ShHT doirasida a'za-davlatlarning ko'p tomonlama savdo va iqtisodiy hamkorlik dasturi" maqullandi. U tashkilot doirasida iqtisodiy hamkorlikda asosiy vazifalar va maqsadlarni o'rnatdi; uzoq muddatga yo'naltirilgan hamkorlik rejalarini, hamkorlikda amaliy ishlar yo'nalishini aniqladi. ShHT mavjud holati bilan

bog'liqlikda iqtisodiy hamkorlikni yaqin 20 yil uchun kengaytirishga imkoniyat yaratish ko'rib chiqildi. Uning faoliyati a'zo davlatlarga erkin tovar oqimi, moliya va xizmat ko'rsatish huquqini tashkillashtirishni taqdim etdi, oxir-oqibat bu chora va tadbirlar hududiy integratsiyaga olib kelishi kerak.

Ushbu tashkilot shakllanayotgan davrda ayrim g'arb tahlilchilari quyidagi fikrlarni bildirdi: " agar ShHT xavfsizlik muammolaridan tashqari, o'z vazifalarini kengaytirib iqtisod va ijtimoy muammolar bilan bog'liq qarorlarni qabul qila boshlasa, unda bu tashkilot haqiqatdan ham kuchli hududiy o'yinchiga aylanadi". Vaqt o'tishi bilan ShHT o'z ta'sirini nafaqat siyosiy sohada, balki shuningdek a'zo-davlatlar yetakchilarining iqtisodiy hamkorlikni o'rnatishga intilishlari borasida kengaytirishi kerak va bularning barchasi tashkilot tanlagan yo'nalish qoidalariga mos tarzda borishi kerak.

Mavjud tendensiya namoyishiga ko'ra, bir necha yil ichida aloqa va energetika infrastrukturasi sohalaridagi hamkorlikning kengayishi savdo, investitsiya va iqtisodning boshqa sohalarida rivojlanishga turtki bo'lishi kutilmoqda. Shanxay hamkorlik tashkiloti rahbarlari ShHT Rivojlanish Fondini, ShHT ishlari bo'yicha kengash, Bank ishi Ittifoqi va ShHT forumi tuzishni reja qilib qo'yishgan. Ushbu tashkiliy institutlarning to'liq ishga tushishi ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorliklarni kelishgan holda amalga oshirishga ko'maklashadi. Shu bilan birga tashkilotning umumiy rivojlanishi ShHTning asosiy a'zolari o'rtasidagi strategik hamkorlikning rivojlanish tempi bilan bog'liq bo'ladi.

ShHT geografik jihatdan turli xil hududlarni (kuzatuvchi davlatlar bilan birga), aholini, madaniyatni, siyosiy tizimlarni va uning ishtrokchilarining turli xil iqtisodiy rivojlanish darajalarini o'z ichiga oladi. Bunday holatda davlatlarning tashkilotdagi maqomidan qat'iy nazar olsak, ularni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruhga Xitoy, Rossiya va Hindiston kiradi, ularning YaIM (rasmiy ma'lumotlarga ko'ra) mos ravishda \$2 trln, 740 mlrd va 735 mlrd.ni tashkil etadi. Bu davlatlarda YaIM o'sishining real darajasi mos ravishda 9,2; 6 va 7%.

Ikkinchi guruhga Eron, Pokiston va Qozog'iston kiradi, ularning YaIM \$128 mlrd, 92 mlrd va 43 mlrd.ni mos ravishda tashkil etadi. Bu davlatlarda YaIM o'sishining real darajasi mos ravishda 4,8; 8,4 va 9%.

Qolgan davlatlar - O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Mo'g'uliston - uchinchi guruh davlatlari bo'lib, ularning YaIM mos ravishda \$10 mlrd, 2,1 mlrd va 1,9 mlrd. Bu davlatlarda YaIM o'sishining real darajasi mos ravishda 5,4; 2,8 va 5%⁶².

Bu tashkilotning barcha davlatlari turli xil rivojlanish darajasiga, iqtisodiy bazaga, uslub va yo'nalishlarga ega. Bu holatda siyosat va iqtisodda kelishilgan hamkorlikka erishish uchun kuchli siyosiy iroda, majburiyatlarni bajarish hududiy hamkorlikni amalga oshirish kerak bo'ladi⁶³. Shu bilan bog'liq holda hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan uzoq muddatli va qisqa siyosatni aniqlashga muhtojligi vujudga keldi.

ShHT ishtrokchi - davlatlarining farqlanishini hisobga olsak, hududda ikkita muammo vujudga kelishi mumkin: iqtisodiy hamkorlik bilan bog'liq muammolar. Birinchisi mohiyati jihatdan siyosat bilan, davlatlarning hamkorlikka bo'lgan irodasi bilan, ishonch darajasi bilan va boshqalar bilan bog'liq. Ikkinchi muammo dastlab iqtisodiy tuzilmalardagi notenglikka, resurslardan foydalanish, infrastrukturani mos emasligiga va iqtisodiy hamkorlikni yengillashtirishga olib keluvchi iqtisodiy o'sishning yo'qligiga asoslanadi.

ShHT doirasida a'zo-davlatlarning iqtisodiy hamkorligini kuchaytirish uchun bir qator chora va tadbirlar qabul qilingan. Lekin shuni takidlab o'tish joizki qabul qilingan choralar bir vaqtning o'zida barcha a'zo-davlatlarga qo'Uanila olmaydi, chunki hamkorlik muammolari bir davlatdan ikkinchisiga o'tishda o'zgaradi. Ular faqat qo'llash imkoniyati bo'lgan joylarda qo'llanishi mumkin.

⁶² Центральная Азия и Кавказ. 2009. №9.

⁶³ Фазал – ул Рехман. «Проблемы экономического и финансового сотрудничества в рамках ШОС» Алматы. 31 мая 2006. VneshMarket.ru Внешнеэкономическая деятельность.

A'zo-davlatlarning siyosiy barqarorligi xavfsizligini kuchaytirish. Ichki siyosiy barqarorlik iqtisodiy o'sish va progress uchun asos bo'ladi. O'z navbatida iqtisodiy rivojlanish yanada ko'proq xavfsizlik va siyosiy barqarorlikka erishishga sabab bo'ladi, bunday holat kambag'allik va ishsizlik darajasi sezilarli kamayganda, insonlar turmushi esa yaxshilanganda vujudga keladi. Iqtisodiy barqarorlik nabarqarorlikning ayrim omillarining vujudga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Hozirgi kunda transnatsional tabiatning ayrim xavflari bilan kurashish uchun davlatlar ko'p tomonlama tuzulmalarda hamkorlik qilishlari kerak.

Davlatlararo munosabatlarda yanada yuqoriroq o'zaro ishonch darajasiga erishish. A'zo-davlatlarning davlatlararo munosabatlari o'zaro ishonch tamoyiliga asoslangan bo'lishi kerak, ya'ni bir-birovini ichki ishlariga qo'shilmalik va o'zaro tenglik. Iqtisodiy hamkorlikning kengayishi mohiyati jihatdan siyosiy qaror hisoblanadi va bunday qarorlarni o'zaro ishonchsizlik va to'liq ishonchsizlik holatida amalga oshirishning iloji yo'q. iqtisodiy hamkorlik yuqori ishonch darajasisiz amalga oshirila olmaydi. Kuchli hududiy hamkorlik, aholi va davlatlarning rahbarlari birlashishda o'zaro foydani ko'rmaguncha hech qachon samarali bo'lmaydi. Iqtisodiy hamkorlik bilan bog'liq mustaqil tashabbus yetakchilar tomonidan hududlararo munosabatlarning iqtisodiy ustunligi hisobga olinmaguncha to'liq o'zini oqlamaydi. O'z-o'zidan a'zo-davlatlar o'rtasidagi ishon iqtisodiy hamkorlikning darajasini belgilab beradi.

Hamkorlik uchun siyosiy iroda va uni keyin mustahkamlanishi. Davlatlarning birlashishga bo'lgan siysiy irodalari keyinchalik kuchayishi kerak, hududlar mashtabining farqalnishiga, rivojlanishning turli darajada ekanligiga va turli xil dunyo qarashga qaramasdan. Bu narsa hududiy iqtisodiy hamkorlikning kengayishi uchun juda katta hissa bo'ladi. Bu holatda YI va ASEAN tuzilmalari misol bo'lishi mumkin, ko'plab qirralarda farqlanishga qaramay, hamkorlik uchun siyosiy iroda ustun va u hududiy hamkorlik tuzilmasida muvaffaqiyatli amalga oshmoqda. Janubiy Osiyo hududiy hamkorlik assotsiatsiyasi (SAARC) va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) holatida, siyosiy iroda ko'p muddatga saqlanib

qolmadi va oqibatda hududiy hamkorlik ko'zlangan darajaga erishmadi. Geostrategik hamkorlik geoiqtisodiy hamkorlikka negative ta'sir qilmasligi kerak.

Xususiy sektor rolini kengayishi. Xususiy sector odatda davlat sektoridan ko'ra, biznes harakati nuqtai nazaridan ko'proq faol hisoblanadi. Ma'lum bir muhitni shakllantira turib, ShHT faoliyatida xususiy sektorning o'rin olishi uchun ko'makdosh bo'luvchi shart-sharoitni yaratish kerak. Tuzilmali iqtisodiy islohotlar ayrim a'zo-davlatlarga xususiy sektor bazasini kengaytirish uchun kerak. Bozor kuchlari o'zaro foydali korxonalarining rivojlanishida o'zining shaxsiy dinamikasiga ega, Savdo palatasi va davlatlarning industriyasi iqtisodiy hamkorlikning kuchayishiga muhim rol o'yanshi mumkin.

Hamkorlikda iqtisodiy asoslangan qarorlarni ishlab chiqilishi. Tashkilot doirasida hamkorlik qilinadigan sohlarni chuqur o'rganish va tahlil qilish kerak. Hamkorlikda iqtisodiy aloqa uchun shart-sharoti yaratadigan sohalarni aniqlash, potensial hamkorlarning qizqishini uyg'otishi kerak va ular orasidagi ishonchsizlikni bartaraf etishi kerak.

Axborot texnologiyalaridan samarali va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish. Iqtisodiy hamkorlik uchun qulay muhitni tashkil etish va uni yaxshilash maqsadida axborot taminlovdan foydalanish kerak. Ma'lumotlar bazasini tuzilishi, axborot oqimini ko'rib chiqish yengillashtirishi va muhim aloqalarni o'rnatilishiga sabab bo'lishi mumkin. Axborot tarmoqlar axborotga yo'l topish uchun va xususiy sektorda aloqalarni o'rnatilishida asosiy rol o'ynaydi.

Standartizatsiya jarayoni. Investitsiyalarni ximoya qiluvchi ishonchli normativ-huquqiy baza, ayniqsa neft loyihalarida va rivojlanish loyihalarida iqtisodiy hamkorlikni kuchayishida muhim omil bo'ladi. Moliyaviy va qonun chiqaruvchi jarayonlarni standartizatsiyalash sezilarli darajada ko'p tomonlama tuzilmalarda hamkorlikni yengillashtiradi va o'zaro ishonchni oshiradi.

Iqtisodiy hamkorlikni qo'llab turish uchun iqtisodiy kursning koordinatsiyalashuvi. Iqtisodiy raqobat barcha a'zo-davlatlarning rivojlanishiga ta'sir o'tkazishi kerak. Kichik va kuchsiz iqtisodlarni ShHT doirasida moslashuvi

butun hududning uzoq muddatli gullab-yashnashini ta'minlashi mumkin. Hududning asosiy koordinatsiyalashuvi - rivojlanish strategiyasi, qaysiki a'zo-davlatlarning vujudga kelgan muammolarni, ayniqsa iqtisodiy globalizatsiya nazarida samarali hal qilishiga yordam beradi. Turli xil qiziqishlarni birlashtirish va tuzatish ishlarini olib borishga muhtojlik mavjud. Koordinatsiyalashgan iqtisodiy kurs hududiy integratsiya jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Imkoniyati bor ishni qilish. ShHT ishtrokchilari va kuzatuvchilari . turli xil guruhdagi davlatlarni tashkil etadi. Shuning uchun ham ShHT faoliyati tamoyillarini buzmasdan turib, ikkitomonlama va ko'ptomonlama hamkorlik doirasida aniq maqsadlarni amalga oshirish uchun ular har bir davlatning imkoniyatidan kelib chiqishlari lozim. Bu borada ASEANning tajribasini hisobga olish kerak, uo'sish uchburchagini " shakllantirgan. Bu borada ShHTning intilishi energetic va infrastruktura loyihalariga qaratilgan. XXI asrda tezlik bilan rivoj lanayotgan Xltoy, HIndiston va Pokiston iqtisodi uchun energetic xavfsizlikni ta'minlash dolzarb masalalardan biriga aylangan. Yaqin Sharq davlatlaridan, Rossiyadan tashqari Markaziy Osiyo davlatlari va Eron ham neft va gaz ishlab chiqarishda katta qudratga egalar va ular bir vaqtning o'zida ShHTda ham a'zo ham kuzatuvchidurlar. Shuning uchun ham ShHT o'z ishtrokchilariga energetic sektorda hamkorlik qilish istiqbollarni taqdim etadi. Energetik hamkorlik hududiy muammolarni hal qilishi kerak.

Aloqa infrastrukturasi kengaytirish. Hozirgi kunda hamkorlikning boshqa sohasi vujudga kelmoqda, aynan infrastruktura loyihalarini ishlab chiqishda. Barcha a'zo-davlatlarni bog'lovchi kommunikatsion infrastrukturani kengayishi savdo, turizm va madaniy almashinuvlar uchun qulay shart-sharoit yaratishni ta'minlaydi. Bu borada ShHT a'zo-davlatlari ko'p tomonli kelishuvni ishlab chiqishmoqda, bu kelishuv xalqaro transportlar koridori rivojlanishini yengillashtirishi kerak. BMT ning Osiyo va Tinch okeani davlatlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi va Osiyo rivojlanish banki bu maqsadni amalga oshirish uchun hamkorlikni boshlab yuborishgan. Ichki transport-kommunikatsion

infratuzilmani ishlab chiqilishi, samarali hamkorlik uchun muhim omil hisoblanadi. Bu muammoga, ayniqsa transport infratuzilmasi rivojlanmagan davlatlarga e'tibor qaratish kerak.

1. Boshqa hududiy tuzilmalar bilan hamkorlik qilish, misol uchun Markaziy Osiyo hududiy iqtisodiy hamkorligi (CAREC), SAARC, MDH va boshqalar bilan, buning uchun ko'ptomonlama aloqalar uchun standart uslublarni ishlab chiqish kerak. A'zo - davlatlarning ko'pchiligi bir yoki bir nechta tashkilotlarning a'zosi hamdir.

Agar hamkorlik mexanizmlari biri-biriga mos kelsa bu ShHT uchun juda foydali. Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik uchun istiqbollar mavjud bo'lishiga qaramay, ular faqatgina samarali va o'z vaqtida qilingan harakatlar, qarorlar bilan amlaga oshishi mumkin, ushbu harakatlar va qarorlar ShHT ning barcha vakillari tomonidan qilinishi kerak. Ishtrokchi davlatlarning barchasi jarayondagi ishtrokini his etishi kerak va shundagi o'zaro samara vujudga keladi.

ShHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti) vakil davlatlarining iqtisodiy hamkorligining rivojlanish istiqbollar va zamonaviy holati.

Dunyoda ko'plab hududiy tashkilotlar va turli xil turdagi kelishuvlar mavjud. Ularning soni doimiy tarzda ko'payadi, chunki jahon iqtisodining hududiylashuvi jarayoni parallel tarzda uning globallashuvi bilan rivojlanmoqda. Hududiylashuv jarayoniga post sovet hududlari ham qo'shilgan. Hududiy hamkorlik tashkilotlari qatorida Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) o'ziga hos o'rinni egallaydi⁶⁴.

Agar dastlab ShHT doirasida asosiy urg'u terrorizm, narkobiznes va boshqalarga qarshi kurashga berilgan bo'lsa, keying davrlarda ShHT vakil davlatlarining e'tiborlari iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratildi.

ShHTning faoliyati siyosatshunoslarni, iqtisodchilarni, diplomatik va moliyaviy doiralarni o'ziga jalb qilmoqda. Ayrim ekspertlar ShHTni Shimoliy

⁶⁴ Центральная азия. Стратегическое партнерство Казахстана и Китая в энергетической сфере. Интернет ресурс. Режим доступа: www.easttime.ru/analytic/1/3/557p.html.

atlantika ittifoqiga (NATO) va Kollektiv xavfsizlig to'g'risidagi kelishuv tashkilotiga (KXTKT) qarama-qarshi tuzilgan tashkilot sifatida baholashadi. Biroq, ShHTning ishtrokchi davlatlari (Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston) bu tashkilot biror-kinga qarshi yo'naltirilgan harbiy blok emasligini, balki u keng hamkorlikka yo'naltirilgan ochiq xalqaro tuzilma ekanligini doimiy tarzda takidlashadi⁶⁵.

ShHT a'zo-davlatlarining katta qismi bir vaqtning o'zida boshqa hududiy tashkilotlarning ishtrokchilari hamdir: Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH), KXTKT, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati (YevroOsIH), Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT), shuningdek ular bir qator xalqaro dasturlar ishtrokchisi ham hisoblanadi: Markaziy Osiyo hududiy iqtisodiy hamkorligi (MOHIH) va Markaziy Osiyo iqtisodlari uchun maxsus dastur (BRESA). Shu bilan bog'liq tarzda ShHT vazifalari, bu tashkilotning Yevroosiyodagi va jahon arenasidagi vazifalari, a'zo-davlatlar uchun ahamiyati to'g'risida savol vujudga keladi. "Gigant" davlatlar Xitoy va Rossiya ShHT a'zolari ekanligini va ular BMTning Xavfsizlik kengashi a'zolari ekanligini hisobga olsak G'arbning ShHTga nisbatan bezovta bo'lib qiziqishlari to'liq tushunarli. Bundan tashqari ShHTda kuzatuvchilar sifatida Pokiston, Eron, Hindiston va Mo'g'iliston hisoblanadi. Shunday qilib ShHT a'zolari va kuzatuvchi davlatlari aholisining soni insoniyatning deyarli yarmini tashkil etadi.

ShHTning zamonaviy rivojlanish jarayonlarining tahlili, tinchlik va xavfsizlik sohalaridan hamkorlikda harakat qilishdan tashqari ko'plab boshqa sohlarda (savdo, transport, energetika, texnologiya va boshqalar) hamkorlikda harakat qilishga o'tish, boshqa hududiy tashkilotlar va dasturlar bilan hamkorlik qilish, shuningdek ShHT a'zo-davlatlari o'rtasidagi aloqalar istiqbollari kengaytirish - uchbu izlanishning asosiy mavzusi.

ShHTga nisbatan qiziqishni kuchayishiga olib kelayotgan yana bir sabab, ushbu tashkilotning jahon energetikasi va transporti nuqtai nazarida katta

⁶⁵ Евразийская экономическая интеграция. 2010. №2. с 41

ahamiyatga egaligidir, hududda yangi energetik va transport kommunikatsiyalari tashkil etilishi, Tashkilot davlatlarida kutilayotgan energo iste'molning o'sishiga olib kelishi mumkin.

Rossiya qiziqishlari asosida ShHT doirasida davlatlarning iqtisodiy aloqalari istiqbollari va holatlarini o'rganish, uning xalqaro tashkilot sifatida jahon hududiylik jarayonidagi va Markaziy Osiyodagi hududiy hamkorlik tizimidagi o'rni ahamiyatli.

- Tashkilot faoliyatining u yoki bu sohasini rivojlanishiga ShHT a'zolarining, birinchi navbatda Rossiyaning qiziqishlariga sabab bo'lgan omillarni o'rganish; shakllangan hamkorlik mexanizmining keyingi rivojlanishini va mukammallashuv imkoniyatlarini aniqlash; parallel hududiy birlashmalar shart-sharoitida ShHT a'zolarining iqtisodiy hamkorlikdagi istiqbollarini va kelajagini aniqlash, shuningdek ASEAN va ATES bilan hamkorlikni rivojlantirish istiqbollarini aniqlash.

Alohida geografik hududda bir nechta hududiy tashkilotlarning faoliyati - zamonaviy hududiylik jarayonlarining istiqbollari biri. Bu narsa Markaziy Osiyo hududida hududiylik jarayonini tasdiqlaydi.

ShHT hududiy tashkilotlarning loyihaviy turiga kiradi, qaysiki YevroOsIH funksiyalarini to'ldiradi.

ShHT a'zo-davlatlarining o'zaro iqtisodiy munosabatlarining keyingi rivojlanish istiqbollari katta ahamiyatga ega. Barcha ishtirokchi davlatlarning qiziqishlari ShHT ni to'liq ishga tushishiga va kengayishiga, ko'p tomonlama hamkorlikning rivojlanishiga qaratilgan.

Rossiya va Xitoy tomonlarining Markaziy Osiyoda o'z qiziqishlarini kelishib olishlari kerak, xalqaro dasturlarni amalga oshirishda vujudga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qila oladigan mexanizm yaratish kerak⁶⁶.

ShHT istiqbollari uning hududiy kengayishi bilan, Tashkilot ichidagi hamkorlikning rivojlanishi bilan bog'liq. U yoki bu yo'nalishni tanlash ishtirokchi

⁶⁶ www.sectso.org.

davlatlar qiziqishidan, shuningdek hududda mavjud bo'lgan birinchi navbatad YevroOsIH va boshqa tashkilotlar funksiyalarining rivojlanishdan kelib chiqadi.

Rossiyaning qiziqishlariga ko'ra ShHT hududda va dunyoda o'z o'rnini mustahkamlashi kerak va shu bilan birga iqtisod rivoji uchun qulay sharoitni yaratishi kerak.

Xulosa

1. ShHT - ochiq xalqaro tashkilot bo'lib, u yevroosiyaning 2/3 qismini egallagan. U o'z faoliyatini hududda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, shuningdek keng xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratgan. Tashkilot hududiy xavfsizlikka sodiqligini e'lon qilingan va u uchinchi davlatga qarshi qaratilmagan, shuningdek tashkilot ko'p qutbli tinchlik tartibini, "Uyg'unlikdagi tinchlik"ni qurish maqsadida Shanxay ruhi deb nomlanuvchi ruhni shakllantirishda ishtrok etmoqda. Uning faoliyatidagi asosiy yo'nalishlar bular: xavfsizlik, iqtisod, madaniy-gumanitar va harbiy-siyosiy sohalaridir. Tashkilotda hamkorlikning turli yo'nalishlariga qaratilgan o'nlab asos bo'luvchi kelishuv-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. ShHT faollik bilan tashqi aloqalarni rivojlantirmoqda, uning xalqaro obro'yi tinimsiz o'smoqda. Xalqaro va hududiy tashkilotlar bilan rasmiy munosabatlar o'rnatilgan. Ko'plab davlatlar ShHT bilan aloqa o'rnatishga harakat qilmoqdalar. Hududdagi ro'y berishi mumkin bo'lgan iqtisodiy inqirozning rivojlanish xavfi va siyosiy qizg'inlik, shuningdek Afg'onistondagi holatning qaysi yo'nalishda rivojlanishining noaniqligini hisobga olgan holda ShHT hududda barqarorlikning maTum bir kafili va hamkorlik institute sifatida o'zini namoyish etmoqda.

2. ShHT davlatlarning o'ziga hos hududiy birlashmasi hisoblanadi. Uning asosida Xltoy va Rossiyaning geosiyosiy qiziqishlari, Markaziy Osiyo davlatlarining siyosiy va iqtisodiy qiziqishlari yotadi. Bu borada Rossiya Markaziy Osiyo hududida AQSHning geosiyosiy maqsadlarini neytrallashtirish pozitsiyasini saqlab turibdi va bu ishda rus-xitoylarning ShHTdagi juftligi to'laqonli samara bermoqda. ShHTning o'ziga hosliklaridan biri shuki, bu tashkilot NATO singari harbiy tashkilot emas, shuningdek ASEAN kabi ochiq iqtisodiy hududiy guruh emas. Tashkilotni hozircha shakllangan integratsion birlashma deb ata bo'lmaydi: u faqat shu yo'nalishda harakatlanmoqda. Tashkilotning hozirgi kundagi asosiy vazifasi ishtrokchi davlatlar iqtisodida o'zgarishlar o'tkazish va iqtisodiy o'sish uchun siyosiy hsart-sharoit yaratish.

ShHT iqtisodiy jihatdan turli xil rivojlanish darajasida bo'lgan davlatlarni birlashtiradi. Ushbu hududiy loyihaning ishtrokchi davlatlari kelishilgan iqtisodiy qiziqishlar mexanizmini topishga intilmoqdalar. Bu ularga ko'p tomonli hamkorlik loyihalarini ishlabchiqash va amalga oshirish asosida teng hamkorlik va o'zaro foydali hamkorlik uchun kerak, shuningdek ularga qo'shma korxonalar va tashkilotlar tashkil etishga harakat qilmoqdalar. Aniq natija va sezilarli foyda beruvchi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarning hamkorlikda ishlab chiqilishi moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi Tashkilotning geosiyosiy maqomini oshiradi. Lekin bularning barchasi hozircha Rossiya va Xitoyning geosiyosiy qiziqishlarini yaqinlashtira olmaydi, ularning farqlanishi ShHT ichida ma'lum bir doiralarni vujudga keltirmoqda.

3. Ishtrokchi davlatlar rahbarlarining doimiy tarzda o'zaro forumlarni va uchrashuvlarni o'tkazib turishlari qaysidur darajada ShHTning xalqaro obro'yini oshiradi. Lekin tashkilot uchun yanada samaraliroq ichki iqtisod, ijtimoiy, gumanitar hamkorlik uchun buning o'zi kamlik qiladi. Hozircha ShHT o'zining xususiyatini to'liq xalqaro iqtisodiy jarayonda faol ko'rsatgani yo'q. Tashkilot ko'proq kuch sarfalb o'z ishtrokchilarini u yoki bu iqtisodiy loyihalarni hamkorlikda amalga oshirishga jalb etishi kerak va bu narsa faqat ikki tomonlama rivojlanishni o'z ichiga olmasligi kerak. ShHT yetakchilarining ikki tomonlama hamkorligi asosan tashqi siyosiy va ichki iqtisodiy siyosat elementlarini o'z ichiga oladi. Ko'ptomonlama iqtisodning boshlanishi ShHT konsolidatsiyasini taminlaydi, biroq u hali to'liq yo'lga qo'yilmagan.

4. ShHTning amaliy faoliyatida axborot ochiqligi yetishmaydi. Tashkilot qandaydir axborot vakumi ichida va u asosan tor diplomatlar doirasidagi masalalarga tayanadi, qaysiki faqat bir qator vazirliklardan ekspertlarni o'ziga jalb etadi.

Yirik biznes, ishchi tuzilmalar qabul qilingan iqtisodiy, energetik, transport va boshqa loyihalar bilan to'liq tanish emas, bu esa investitsiyalar jalb qilinishini,

ularni amalga oshirilishiga keng doiradagi ishtrokchilarni jalb etilishini, shu bilan birga kichik va o'rta biznes tomonlarini jalb etilishini qiyinlashtirmoqda.

ShHTning so'zsiz salbiy tomoni, bu ko'p qarorlarning Tashkilot sammitlari va boshqa uchrashuvlarida faqatgina maslahatlashilishi, eng yaxshi holatda hujjatlarda belgilanishidir, lekin ular hozircha amalga oshmay qolmoqda.

5, Markaziy Osiyo hududi, hozircha ShHT faoliyati amalga oshirilayotgan asosiy hududdir; bu hudud kelajakda dunyoning katta ta'sirga ega bo'lgan iqtisodiy markazlaridan biriga aylanish uchun hamma imkoniyatlarga ega. U yitik mehnat va mineral resurslarga ega. Bu yerda rentable qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun barcha imkoniyatlarga ega. Bir vaqtning o'zida bu yerda iste'mol va investitsion tovar o'tkazish o'sayotgan joydir. SHHT formatida ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlik dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha rejalar qabul qilingan, unga ko'ra yuzdan ortiq loyihalar aniqlangan va bu loyihalar energetika, transport, savdo, telekommunikatsiya, ekologiya, qishloq xo'jaligi, ilmiy izlanishlar va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi.

Shunga qaramay SHHT doirasida iqtisodiy hamkorlikning rivojlanish istiqbollari hozircha aniqlanmagan. Markaziy Osiyo hududi ko'plab tashqi kuchlarning geosiyosiy va geoiqtisodiy qarama-qarshiligi joyi hisoblanadi. Suv va yer resurslarining teng taqsimlanmaganligi sharoitida Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar saqlanib qolgan. Ishtrokchi davlatlarning qiziqishlar kelishuvi mexanizmi to'g'risidagi konsolidatsiyasi asosi bo'yicha masalalar ochiqlicha qolmoqda.

Xitoyning SHHTdagi hamkorlari oldida bir qator so'zsoz iqtisodiy ustunliklari va uning bu ustunliklarni mustahkamlashga urinishi SHHTning Markaziy Osiyo davlatlarida va Rossiyada ma'lum bir xavotirni uyg'otgan. Rossiyaning esa Markaziy Osiyo davlatlari bilan an'anaviy aloqalari mavjud. Ularning MDH, YevroOsIH va boshqa tashkilotlar doirasidagi o'zaro majburiyatlaribatlari ularning munosabatlarini mustahkamlamoqda. Rossiya uchun MOH strategik qiziqishlar zonasi hisoblanadi. Bunda keng bozor munosabat, boy

energoresurs, ularga iste'molchilarning yaqinligi, Xitoyning kuchli iqtisodi. Rossiyaning SHHT faoliyatidagi yanada faolroq ishtroki va tadbirkorlar doirasining katta qiziqishlari SHHTning megahududini mustahkamlanishga sezilarli hissa boTishi va Rossiyaning strategik vazifalarini ham hal qilishi mumkin.

Hududda amerika va yevropaning faollashganini kuzatish mumkin. SHHTning "raqobatbardosh ustunligini" amalga oshirish uchun va turli xil integratsion loyihalarning mavjudligi sharoitida ishtrokchi-davlatlarning umumiy qiziqish zonalarini aniqlash maqsadga muvofiq boTardi. 6. 2020 yilgacha ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturini amalga oshirilishi o'zaro savdo va investitsiya, va tovarlarning, kapitalning SHHT hududida erkin harakatlanishiga asta-sekinlik bilan o'tish uchun qulay sharoit yaratishi mumkin.

Hamkorlikning energetika, transport, telekommunikatsiya, kredit-bank sohlari bilan bir qatorda, dastur ta'lim, fan va innavatsion texnologiyalar, sogTiqni saqlash, qishloq xo'jaligi sohalarini ham o'z ichiga olgan.

Kuchli rivojlanayotgan Xitoy o'zining xom ashyo va yoqilg'isiga nisbatan o'sayotgan talab evaziga SHHT davlatlarinining iqtisodiy o'sishiga sabab boTmoqda. Bu davlatlarning rivojlanishiga ko'p jihatdan Xitoy tomonidan SHHT inqiroziga qarshi choralar doirasida taqdim etilayaotgan kreditlar sabab boTmoqda. Xitoyda Markaziy Osiyo iqtisodlarining eng kuchsizini qo'llab quvatlash kerak deb hisoblashadi. MOH (Markaziy Osiyo hududi) iqtisodiga Xitoy asta-sekinlik bilan kirib kelmoqda va bu yo'lda u ikki tomonlama hamkorlik dasturidan foydalanmoqda. Xitoy SHHT da ZST loyihasini amalga oshirishga jiddiy kirishgan.

Rossiya esa YevroOsIH tarkibida bojxona ittifoqiga va MDH doirasida erkin savdo zonasiga katta umid bog'lagan, ularda SHHTning Markaziy Osiyo davlatlaridan ko'pi ishtrok etishmoqda. O'zaro savdo va investitsiyalar rivojlanishidan shuni xulosa qilish mumkinki, Xitoy bu hududda o'zining iqtisodiy ta'sirini kuchaytirmoqda.

7. Hozirgi kunda SHHT a'zo davlatlarining barchasini qiziqtiradigan yo'nalish bu transport kommunikatsiyasi, energetika va resurslardan foydalanaish masalalari hisoblanadi. SHHT doirasida iloji boricha yirik loyihalarni faollashtirishni amalga oshirish kerak. Bu narsa infrastruktura, tabiatni muhofaza qilish, suv resurslaridan unumli foydalanish sohalaridagi loyihlarga xususiy kompaniyalarni jalb etishi mumkin.

Ishtrokchi davlatlar o'rtasida yagona transport makoni g'oyasini amalga oshirish ayniqsa muhim o'ringa ega. Avtotransport koridorlarini modernizatsiyalash borasida ma'lum bir ishlar olib borilmoqda, yangi yo'nalishlar yo'lga qo'yilmoqda, shu bilan birga Xitoyning janubiy viloyatlarida Yevropaga yo'nalish uchun temir yo'llar qurilmoqda. Shunisi ma'lumki transport koridorlarining strategik ahamiyati yangi tashqi iqtisodiy aloqalar yaratilishi uchun muhim. Yo'llarning kengayishi natijasida MO davlatlari dengizga chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar - bu esa yangi resurslarga, yangi bozorga, yangi aloqalarga yo'l demakdir.

8. Tashkilotni qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirish boshqa variant bo'lishi mumkin. SHHT kotibiyatiga tashkilotga qo'shilish istagini bildirgan davlatlarning murojatlari hali ham to'xtagani yo'q. ustav hujjatlarida birlashma faoliyatida ishtrok etishning uchta asosiy shakli belgilangan: a'zolik, kuzatuvchi maqomi va assotsiatsiyalashgan a'zo maqomi. 2009 yilda Yekaterinburgdagi sammitda ikki davlat ya'ni Shri-Lanka va Belorussiya dialog bo'yicha hamkor maqomini olishdi.

2012 yilda Pekindagi sammitda Turkiya ham yuqoridagi maqomni oldi. Hozirgi kunda SHHTda yangi a'zolarni qabul qilishga moratoriy kiritilgan. Bu narsa yangi a'zo olib kelishi mumkin bo'lgan muammolardan xavfsirash bilan bog'liq. Bundan tashqari a'zo- davlatlar sonining ko'payishi SHHT moliyasining tarqalib ketishiga xavf bor.

9. SHHTning rivojlanish yo'lida davlatlarning boshqa birlashmalari bilan

hamkorlik qilish istiqbolli yo'nalish sifatida qaralmoqda. SHHT uchun hamkorlik, raqobat va tajriba almashish nuqtai nazaridan ASEAN, ATES. MDH, YevroOsIH va boshqa tashkilotlar qiziqish uyg'otmoqda.

2008 yil avgustda Dushanbedagi sammitda SHHTning dialog bo'yicha hamkor maqomi haqidagi hujjati qabul qilindi. Bu maqom SHHT kuzatuvchisi va a'zosi o'rtasidagi qismdir. Shu bilan birga hududda boshqa tashkilotlarning mayjudligi SHHTda hamkorlik va koordinatsiyani qiyinlashtirmoqda. Bu narsadan tomonlar o'rtasidagi aniq kelishuvlar orqali qutilish mumkin. SHHT, YevroOsIH, MDHning rivojlanishi o'zaro bog'liqlik bilan kechmoqda. Ulardan birining tez rivojlanishi ikkinchisining integratsion o'zaro harakatda zaiflashuviga olib kelmoqda. TS shaklidagi (unga Qozog'iston va Rossiya kiradi) hamkorlik qanchalik tez kechsa, YevroOsIHning boshqa davlatlari bilan uzilishlar ochiqroq bo'ladi, shuningdek Xitoy va O'zbekiston bilan ham, ular ushbu birlashma a'zosi emaslar. Shunda YevroOsIH doirasida ham, SHHT doirasida ham hamkorlikda harakat qilish qiyin bo'lib qoladi.

10. Umuman SHHTning istiqbollari huda keng. Bu birinchi navbatda undagi davlatlarning geografik jihatda bir-biroviga juda yaqinligi bilan izohlanadi. SHHTning barcha a'zolari o'z hududlarining ichida ham, shuningdek ularga qo'shni va yaqin bo'lgan hududlarda ham barqarorlik va xavfsizlik saqlanib qolishi tarafdoridurlar, shuning uchun ham ular SHHT maqsadalarining ro'yobga chiqish taradoridurlar.

SHHT bugungi kunda, boshqa hududiy integratsion tashkilotlarga hos bo'lmagan bir qator o'ziga hos qirralarga ega. O'z-o'zidan bu tashkilotning rivojlanish yo'li boshqa tashkilotlardan farqlanishi aniq. SHHT evolyutsiyasi ("spillover") konsepsiyasi xulosalarini tasdiqlaydi, uning falsafasiga ko'ra integratsiyaning kengayishidan qochib bo'lmaydi.

Rossiya uchun Markaziy Osiyo hududi strategik qiziqishlar zonasi hisoblanadi. Bunda keng bozor munosabat, boy energoresurs, ularga iste'molchilarning yaqinligi, Xitoyning kuchli iqtisodi. Rossiyaning SHHT

faoliyatidagi yanada faolroq ishtroki va tadbirkorlar doirasining katta qiziqishlari SHHTning megahududini mustahkamlanishga sezilarli hissa bo'lishi va Rossiyaning strategik vazifalarini ham hal qilishi mumkin.

Agar ishtrokchi davlatlar o'zaro qarama-qarshiliklarni bartaraf etsalar SHHTning faoliyati albatta o'z natijasini beradi va bu tashkilot dunyodagi yirik hududiy tashkilotlar bilan raqobat qila oladi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I.A.Karimov asarlari

1. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. Том 9. Т., 2001.
2. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Том 10. Т., 2002.
3. Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Том 11. Т., 2003.
4. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Том 12. Т., 2004.
5. Каримов И.А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Том 18. Т., 2010.

Adabiyotlar

1. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения: Учебное пособие. М.: ИВЦ «Маркетинг», 2004.
2. Анализ экономики. Под ред. Рыбалкина В.Е. М.: Международные отношения, 2006.
3. Болятко А.В. ШОС к новым рубежам сотрудничества, РАН ИДВ.- М.: 2008.
4. Бляхман Т.С., Кротов М.И. Россия и Содружество Независимых Государств: уроки первого десятилетия. С-Пб., 2001.
5. Булатов А.С. Мировая экономика и международные экономические отношения М.: Магистр, 2008.
6. Внешнеэкономическая деятельность. Под ред. Смитиенко Б.М., Поспелова В.К. М.: Издательский центр «Академия», 2004.

7. Внешнеэкономические связи России. Под ред. Орешкина В.А., Спартака А.Н.-М.: ВАВТ, 2003.
8. Вопросы вступления России в ВТО: предпосылки, возможности, последствия. Под ред. Мантусова В.Б. — М.: Научная книга, 2003.
9. Восточные соседи СНГ: факторы и проблемы сотрудничества, под ред. Л.Б.Вардомского, М.Е.Трегубенко, Е.М.Кузьминой, М., ИЭ РАН, 2010.
10. Глобализация мирового хозяйства и национальные интересы России. Под ред. Колесова В.П., Осьмовой М.Н. М.: ТЕИС, 2002.
11. Дюмулен И.И. Всемирная торговая организация. М.: ЗАО «Издательство Экономика», 2003.
12. Евроазиатское бюджетное пространство: вызовы интеграции. Под ред. Лаврова А.М. М.: Серия «Общественные финансы». Вып. 7, 2007.
13. Захаров А.Н. Экономическая безопасность России в сфере международных отношений. М.: МГИМО, 2005.
14. Иноземцев В.Л. На рубеже эпох. Экономические тенденции и их неэкономические последствия. -М.: Экономика, 2003.
15. Интеграционные процессы в странах СНГ: Межвуз. сб.// Под ред. Рязанова В.Т. С-Пб.: Издательство С.-Петербургского университета, 1996.
16. Кузьмина Е.М. Геополитика Центральной Азии М.: Наука, 2007.
17. Кузьмина Е.М. Адаптация экономик Центральной Азии к геополитическим вызовам современности, М., ИЭ РАН, 2010.
18. Либман А.М., Хейфец Б.А. Модели региональной интеграции: Монография. -М.: Экономика, 2011.
19. Рехман Ф. ШОС: экономические проблемы//Сборник материалов международной научно-практической конференции «Проблемы экономического и финансового сотрудничества в рамках ШОС». Алматы: КИСИ при Президенте РК, 31 мая 2006.

- 20.Тоска по «нефтяной игле» начнется в 2010 г.//Коммерсантъ, №50 28 марта 2007.
- 21.Чуфрин Г.И. Меняющиеся приоритеты ШОС//Международная жизнь, № 12 2006.
- 22.Шаповалов А. Россия получит новую экономику к 2011 г.//Коммерсантъ, № 56 5 апреля 2007.
- 23.Яров Ю. Глобализация экономики и развитие интеграционных процессов в СНГ//Российский экономический журнал, №1 2001.
- 24.Официальный сайт министерства экономического развития Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.economy.gov.ru.
- 25.Сайт посольства Китайской Народной Республики в США. Интернет ресурс. Режим доступа: www.china-embassy.org.
- 26.Официальный сайт министерства транспорта Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.mintrans.ru.
- 27.Информационный портал «Обзор СМИ». Интернет ресурс. Режим доступа: www.polpred.ru.
- 28.Информационный портал «Итоги саммита ШОС-2006». Интернет ресурс. Режим доступа: www.russian.scosummit2006.org.
- 29.Сайт Министерства коммерции КНР. Интернет ресурс. Режим доступа: www.russia.mofcom.gov.cn.
- 30.Официальный сайт Президента Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.president.kxemlin.ru.
- 31.Радио-Маяк. Интернет ресурс. Режим доступа: www.radiomayak.ru.
32. Сайт Посольства России в Китае. Интернет ресурс. Режим доступа: www.russia.org.cn.
- 33.Государственная корпорация «Банк развития и внешнеэкономической деятельности (Внешэкономбанк)». Интернет ресурс. Режим доступа: www.veb.ru.
- 34.Компания АТОН. Интернет ресурс. Режим доступа: www.aton.ru.

35. Информационное агентство «Интерфакс». Интернет ресурс. Режим доступа: www.interfax.ru.
36. Федеральная служба государственной статистики. Интернет ресурс. Режим доступа: www.gks.ru.
37. Официальный сайт министерства иностранных дел Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.mid.ru.
38. Сайт Группы Всемирного банка. Интернет ресурс. Режим доступа: www.worldbank.org.
39. Официальный сайт Шанхайской организации сотрудничества. Интернет ресурс. Режим доступа: www.sectesco.org.
40. Аналитический портал «Ракурс-арт». Интернет ресурс. Режим доступа: www.rakurs-art.ru.
41. Официальный сайт председательства Российской Федерации в Шанхайской организации сотрудничества в 2009 году. Интернет ресурс. Режим доступа: www.shos2009welcome.ru.
42. Информационный портал "Banki.ru". Интернет ресурс. Режим доступа: www.banki.ru.
43. Центральная азия. Стратегическое партнерство Казахстана и Китая в энергетической сфере. Интернет ресурс. Режим доступа: www.easttime.ru/analytic/1/3/557p.html.
44. Сайт посольства Республики Туркменистан в Российской Федерации. Интернет ресурс. Режим доступа: www.turkmenembassy.ru.
45. Информационно-аналитический портал Империя. К подписанию Договора о строительстве газопровода Туркменистан Афганистан - Пакистан - Индия. Интернет ресурс. Режим доступа: www.imperiya.by.
46. Агентство экономической информации «Прайм». Интернет ресурс. Режим доступа: www.prime-tass.ru.
- 47.154. Сайт Конференции ООН по торговле и развитию. Интернет ресурс. Режим доступа: www.unctad.com.

48. Сайт Международного валютного фонда. Интернет ресурс. Режим доступа: www.imf.com. 1. Периодические издания
- 49.158. Вопросы экономики. 2011, №9.
50. Международная жизнь. 2008. №8.179. МЭиМО.2009. №11.
51. Независимая газета. 2007. № 22.181. Профиль. 2007. №7.
52. Российская газета. 2011. №34.
53. Финансовые известия. 2008. №7.
54. Центральная Азия и Кавказ. 2009. №9.
55. Экономика и жизнь. 2010. №15.186. Эксперт. 2010. №68.
56. Евразийская экономическая интеграция. 2010. №2.